

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**



**403-guruh talabasi Rajabova Bonuxon Samandar qizi
5120300 Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: ETNOLOGIK ATAMALAR VA ULARNI IZOHLI TARZDA
FANDA QO'LLASH USULLARI**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. M.Jumaniyozova

Urganch 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Tarix

(kafedra nomi)

Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi

Rajabova Bonuxon

Ilmiy rahbari

t.f.n. M.Jumaniyozova

Urganch shahri
2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Tarix
(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba *Rajabova Bonuxon Samandar qiziga*
Universitet rektorining «188T» -sonli 18 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari*** mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan ***t.f.n.M.Jumaniyozova*** bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: ***Kirish. 2ta bob, 6ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.***
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar ***shu mavzudagi ilmiy adabiyotlar, ilmiy to'plamlar, konferensiya materiallari, oila instituti materiallari va yirik etnograf mutaxassislarning maqola va ilmiy ishlaridan olindi.***
5. Bitiruv malakaviy ishga oid jami 10ta rasmlar ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
	<i>Mavzu bo'yicha materiallar yig'ish</i> <i>Mavzuni yoritish bo'yicha manba va adabiyotlardan foydalanishni o'rganish</i> <i>Ishning kirish qismini yozish</i> <i>Etnologik atamalar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim manba sifatida.</i> <i>Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasi</i> <i>Etnonimlar va etnotoponimlar</i> <i>Dars mashg'ulotlarida etnologik atamlardan foydalanish</i> <i>Darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijtimoiy atamalardan foydalanish</i> <i>Ish yuzasidan maqola chiqarish</i> <i>Ishning xulosa qismini yozish</i> <i>Ishni hujjatlashtirish</i>	Sentabr, Oktabr, Noyabr dekabr 2015-yil fevral, mart Aprel, May oyining birinchi, ikkinchi o'n kunligi May uchinchi o'n kunligi iyun oyi birinchi o'n kunligi

Bitiruv malakaviy ish rahbari ***dots. M.Jumaniyozova***

Bajaruvchi talaba: ***B.Rajabova***

2015 yil «3» _iyun

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 –yil 28-noyabrda tasdiqlandi
(«7»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ t.f.n.dots.**T.A.Abdullaev**

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba Rajabova Bonuxon Samandar qizi

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari.***

Bitiruv malakaviy ish xajmi: Kirish. 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Tushuntirish qismi: Bitiruv malakaviy ishda ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari o'rganilishi yoritiladi.***

Ilovalar soni: 10 ta

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston etnologiyasining dolzarb nazariy- metodologik muammolariga oid materiallarning chop etilishi ushbu fanning nazariy-metodologik jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganligidan dalolat beradi. Shunday ekan tadqiqotlar etnologiyadagi zamonaviy konsepsiyalar, milliylik va etnomadaniyat masalalarining nazariy- metodologik yondashuvlari, oilaviy va diniy qadriyatlarning o'rganilish metodologiyasi kabi turli yo'nalishlardan iborat bo'lsa-da, moxiyatan barcha ishlar etnologiya fanining nazariy-metodologik asoslariga qaratilgan. Etnologiya fanining o'ziga xos atamaları mavjud va ular albatta fanda qo'llaniladi. Atamalarsiz fan o'zining ilmiyligini yo'qotadi. Ammo har bir atamaning qo'llanish usuli va tartibi majud. Bu borada hali ilmiy ish qilinmagan. Bitiruvchi B.Rajabova ushbu mavzuda ilmiy ishning dastlabki bosqichini boshlagan va yaxshi natijalarga erishgan. Tadqiqot davomida talaba bir qancha ilmiy adabiyot materiallari va gazeta –jurnallarda chop etilgan maqolalardan foydalangan.

B.Rajabova quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi va buni amalga oshirdi:

-Mavzuni yoritish bo'yicha manba va adabiyotlardan foydalanishni o'rganish

-Ishning kirish qismini yozish

- Etnologik atamalar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim manba sifatida a ekanligini o'rganish**
- Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasini bayon etish**
- Etnonimlar va etnotoponimlarni yoritish**
- Dars mashg'ulotlarida etnologik atamalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish**
- Darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijtimoiy atamalardan foydalanish tartibi va shakllarini ko'rsatish**
- Ish yuzasidan maqola chiqarish**
- Ishning xulosa qismini yozish**

Talaba tomonidan maqsad qilib qo'yilgan barcha vazifalar bajarilgan. Ilmiy rahbar sifatida talaba Rajabova Bonuxonning bitiruv malakaviy ishi bilan tanishib chiqdim. Kerakli maslahatlarni berib kamchiliklarini tuzatdim. Ba'zi juz'iy kamchiliklarni hisobga olmagan holda bakalavriat bitiruvchisi Rajabova Bonuxonning bitiruv malakaviy ishi mavzusining yoritilishi DAK talablariga javob beradi va komissiya oldida himoya qilishga loyiq deb, himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari: _____ **t.f.n. M.Jumaniyozova**
(F.I.Sh.)

2015 yil «___» _iyun_____

Urganch davlat universiteti

Tarix _____ fakulteti

Tarix _____ ta'lim yo'nalishi

Rajabova Bonuxonning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari***. Malakaviy ishning hajmi ____13673_____so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni:71 bet_____sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _10._____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi 2ta bob, 6 ta paragraf mazmunini qamrab olgan. Mavzuning dolzarbligi tarixiy ma'lumotlar asosida to'la ravishda ochib berilgan.

Malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi.ilmiy yangiligi, masalaning ahamiyati o'z aksini topgan. Asosiy qismda:

-Mavzuni yoritish bo'yicha manba va adabiyotlardan foydalanishni o'rganish

-Ishning kirish qismini yozish

-Etnologik atamalar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim manba sifatida a ekanligini o'rganish

-Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasini bayon etish

-Etnonimlar va etnotoponimlarni yoritish

-Dars mashg'ulotlarida etnologik atamlardan foydalanish usullarini ishlab chiqish

-Darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijtimoiy atamalardan foydolanshi tartibi va shakllarini ko'rsatish

-Ish yuzasidan maqola chiqarish

-Ishning xulosa qismini yozish

Malakaviy ishni yozishda foydalanilgan ilmiy manbalar. Tarixiy manbalar, O'zbekiston Respublikasining qonun va farmonlari, etnologik va nazariy-metodologik tadqiqotlar, soha mutaxassislarining ilmiy risola va maqolalari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Bitiruv malakaviy ishi UrDU "Tarix" kafedrası majlisida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan (2015-yil"25-iyundagi_____ - sonli bayonnoma).

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Maktab, kollej, oliy ta'lim muassasalarida etnologiya bo'yicha mavzularni o'rganishda foydalaniladi

Malakaviy ish qamrab olgan ma'lumotlar; ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari.***

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. *Ba'zi bir orfagrafik xatolarga yo'l qo'yilgan. Ularni to'g'irlash sharti bilan himoyaga tavsiya qilaman*

Taqrizchi:

UrDU qoshidagi 3-son

akademik litsey o'qituvchisi G'afforov M.

2015yil «3» iyun

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
5120300 - Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishining
bitiruvchisi

Rajabova Bonuxon Samandar qizining

Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari

mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «25» 2015 yil «iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari**

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil «_____» _____

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrası

Bitiruv malakaviy ish ____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi ***Rajabova Bonuxon Samandar qizi***

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo‘llash usullari.***

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi . **t.f.n. M.Jumaniyozova**

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «_____»_____da o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib UrDU qoshidagi 3-son akademik litsey o‘qituvchisi ***G‘afforov Maqsad*** tayinlandi.

Kafedra mudiri: t.f.n. ***Temur Abdullayev Pulatovich***

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo‘yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: ***t.f.n. O. Shixov***

Tasdiqlayman
fakultet dekani
Shixov O.
"28" noyabr 2014 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba **Rajabova Bonuxon Samandar qizi**

1. Ishning mavzusi:

Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari.

«15-noyabr» 2014 yil universitet rektorining 188 T sonli 1-buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "3" iyun 2015y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

.M.Jumaniyozova . *Etnos va etniklik. Urganch.2011.*

2.M. Жуманиязова *Тарих дарсларида ўқитишнинг муаммоли технологиялари фойдаланиш. Тошкент.2009.*

3. J.G'.Yo'ldoshev,S.A.Usmonov.*Pedagogik texnologiya asoslari.Toshkent.2004*

4.*Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari mavzusidagi seminar-trening materiallari. Toshkent, 2002.*

5.*Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar yechimlar.Ilmii-amaliy konferensiya materiallari.Toshkent. PFTI.1999.*

6.*Ўзбек антологияси асослари 1-жилд.Т.1995*

7.Ashirov A, Atajanov Sh.*Etnologiya. T.2012.*

8.*O'zbekiston etnologiyasining nazariy-metodologik asoslari.Toshkent.2014*

9. *Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi.Toshkent.2012*

4. Ishning maqsadi: ***Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash usullari*** tadqiqotlarini ilmiy jihatdan yoritish maqsad qilib olingan.

5. Rasmi materiallar ro'yxati:10 ta

6. Maslahatchilar: t.f.n. M.Jumaniyozova, t.f.n. Sh.Nurullayeva, t.f.n. S.Matkarimova

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
<i>Ilovalar to'zish</i>	t.f.n. M.Jumaniyozova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	Sentabr2014	Sentabr2014
<i>Kirish qismini yozish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	Oktabr 2014	Oktabr 2014
<i>Mavzuni yoritish bo'yicha manba va adabiyotlardan foydalanishni o'rganish Ishning kirish qismini yozish Etnologik atamalar ta'lim- tarbiya jarayonida muhim manba sifatida ekanligini o'rganish</i>	t.f.n. M.Jumaniyozova, Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	Noyabr 2014	Noyabr 2014
<i>Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasini bayon etish Etnonimlar va etnotoponimlarni yoritish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	Dekabr 2014	Dekabr 2014
<i>Dars mashg'ulotlarida etnologik atamlardan foydalanish usullarini ishlab chiqish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	Yanvar 2015	yanvar 2015

<i>Darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijtimoiy atamalardan foydolanshi tartibi va shakllarini ko'rsatish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	fevral 2015	fevral 2015
<i>Ish yuzasidan maqola chiqarish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	mart 2015	mart 2015
<i>Ishning xulosa qismini yozish</i>	t.f.n.M.Jumaniyoz ova, t.f.n. Sh.Nurullayeva , S.Matkarimova	aprel 2015	aprel 2015

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni:

7. Ilmiy rahbar: **t.f.n. t.f.n. M.Jumaniyozova**
(F.I.SH.)

(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: **Rajabova Bonuxon**
(F.I.SH.)

(imzo)

Kafedra mudiri: **t.f.n. Abdullayev Temur**
(F.I.SH.)

(imzo)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**



**403-guruh talabasi Rajabova Bonuxon Samandar qizi
5120300 Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Etnologik atamalar va ularni izohli tarzda fanda qo'llash
usullari**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. M.Jumaniyozova

Urganch 2015

MUNDARIJA:

KIRISH	3-7
I BOB. ETNOLOGIK ATAMALAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI	
1.1. Etnologik atamalar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim manba sifatida.....	8-14
1.2. Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasi.....	15-20
1.3. Etnonimlar va etnotoponimlar.....	21-24
II – BOB.DARS MASHG‘ULOTLARIDA ETNOLOGIK ATAMALARNI QO‘LLASH USULLARI.	
2.1. Dars mashg‘ulotlarida etnologik atamlardan foydalanish.....	24-35
2.2. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda etnologik atamalardan foydalanish.....	36-59
Xulosa.....	60-61
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	62-63
Ilovalar.....	63

K I R I S H.

Mavzuning dolzarbligi. Etnologiya insoniyat va uning faoliyatining turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan bo'lishi bilan birga mazkur fan jamiyat hayotida hech qanday me'yoriy o'lchovlar bilan o'lchab bo'lmaydigan qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Birinchidan, etnologiya fani insonlarning dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini anglashga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirish missiyasini bajaradi. Bu esa insonlarni ma'naviy boy va hayot faoliyatining samarali bo'lishiga olib kelishi shubhasizdir. Ikkinchidan, etnologiya insoniyat faoliyati, jamoat tartibi va ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining tarixiy-madaniy mazmunini tadqiq qilish asosida tarixiy tajriba, madaniy (hamda biologik) munosabatlar (individual yoki jamoaviy) umuman jamiyat hayotiga, shu jumladan, siyosat va boshqaruvga qanday ta'sir etishini tadqiq qiladi. Uchinchidan, etnologiya bilan ko'pincha tadqiqotchilar avvalo o'zlarining shaxsiy qiziqishlari doirasidan kelib chiqib mashg'ul bo'ladilar va bu jarayonda moddiy qiziqish yoki qandaydir ijtimoiy buyurtma birinchi darajali muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Mamlakatimizda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hayotimizning barcha jabhalarida o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham mazmunan, ham shaklan boyib bermoqda. Ta'lim jarayonida o'qitishning tajribada sinovdan o'tgan, yanada samaraliroq, o'quvchida erkin fikr uyg'otadigan, milliy istiqlol g'oyalariga asoslangan usullardan foydalanish imkoniyati tug'ildi. Tarix darslarida o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan birga Vatanimiz tarixiga hurmat uyg'otishga, uni chuqur va xolisona o'rganishga, har bir tarixiy atama haqida o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishga, tarixiy voqelikka o'z munosabatini erkin bildirishga, jahon mamlakatlari tarixi va ularning taraqqiyot bosqichlarini o'rganishga va ularni baholay olish, tahlil qilish singari ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi¹.

¹ И.А.Каримов. Баркамол авлод орзуси. Тошкент. 2000 й. 97-бет

Zero, komil insonni tarbiyalash, o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikma va malakalarining salmog'iga bog'liqdir. Shuning uchun ham o'qituvchi ustozlarning o'quvchiga mukammal bilim berishi yo'lida mavjud imkoniyatlardan to'laroq va samaraliroq foydalanish juda muhimdir. Ana shunday materiallar sirasiga mahalliy etnologik atamalar ham kiradi.

Bunday atamalar juda uzoq davrning mahsuli bo'lib, xalq hayoti, tarixi, urf-odatleri, madaniyati va tili haqida boy ma'lumot beruvchi manbadir. Etnologik atamalardan o'quv jarayonida ham unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa, ular tarix, o'lkashunoslik, jo'g'rofiya, ona-tili va adabiyot darslarida qo'shimcha material sifatida katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilar quyi guruhlardan boshlaboq turli xil nomlarga duch keladilar. Masalan: joy nomlari, buyum yoki ovqat nomlarining ayrimlari ma'lum ma'noni anglatadi, ayrimlarining ma'nolari unutilgan. Shunday vaziyatda o'qituvchi ba'zi nomlarni tuzilishi, yasaliishi yoki ma'nolarini aytib bersa, o'quvchilarda nomga va darsga qiziqish ortadi.

Atamalar bilan tanishtirish o'quvchilarga terminni asosli esda qolishiga yordam beradi, ikkinchidan so'z yasaliishi haqida ma'lumot oladi, uchinchidan ularda etimologik tahlil ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada o'quvchi har bir so'z va iboraga o'ylanib qaraydi, ularni ongli ravishda idrok qilishga harakat qiladi, ma'no va mazmunlarini bilishga qiziqadi. Har bir nomning yozilishi va tuzilishini bilishdan tashqari ularning xalq tarixi bilan, jo'g'rofiy reallik bilan bog'liq ekanligini anglaydi.

BMI mavzusining o'rganilish darajasi Etnologik atamalar etnologiyaga oid barcha asar, risola va maqolalarda keltirilgan. Atamalar turli viloyatlarda narsa va voqealarning nomlaridan iborat. Shuni alohida ta'kidlash joizki butun dunyo ilm ahli tomonidan e'tirof etilgan atamalardan tashqari regional atamalar ham fanda shakllangan. Atamalarining sharhlari ilmiy adabiyotlarda berilgan va izohlangan bo'lsada dars jarayonida uni qo'llash metodlari maxsus o'rganilmagan. Shunday bo'lsada S.V. Lure, A.P. Sadoxin, I. Jabborovning asarlarida², shuningdek, o'zbek

² И.Жабборов. Жаҳон халқлари этнологияси. Т.: 2005. Жаҳон этнологияси асослари. Тошкент. 2007.

elshunoslik maktabining asoschisi K. Shoniyozevning etnogenez va etnik tarix muammolariga oid asarlarida, A. Doniyorovning, elshunos olim O. Bo'riyev va T. Xo'jamberdiyevlarning³ asarlarida bu mavzuga katta e'tibor berilgan. Etnolog va tarixchilar tomonidan tashkil qilinadigan qator konferensiyalarning materiallari⁴dagi maqolalarda ushbu mavzuga atroflicha yondashilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Fanda va dars jarayonida etnologik atamalardan foydalanish orqali ilmiy ish va mashg'ulotlar samaradorligini oshirishni ta'minlashga aniq yo'naltirilgan usullar va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari.

- Ijtimoiy fanlarda etnologik atamalardan foydalanib, uning mazmunini boyitish va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Etnologik atamalarning tarixiy haqiqat bilan aloqadorligini anglash orqali o'quvchilarda ba'zi atamalar haqidagi noaniq tushunchalarga barham berish;
- Tarixiy-geografik reallik va nomlarning o'zaro aloqasi masalasiga e'tibor qaratish orqali atrof muhit va voqea -hodisalarga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Darsdan tashqari ishlarda etnologik atamalardan foydalanish bo'yicha takliflar berish;
- Etnologiya to'garaklari, o'tkir zehnlilar klubi, etnologik o'yinlar tashkil qilish usullarini ishlab chiqish;
- Etnologik atamlarni to'plash va ularni saqlash, nomlarning «Qizil kitobi»ni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Joy nomlaridan ta'lim jarayonida foydalanish borasida o'tkazilgan tajribalarni umumlashtirish va bu sohadagi yutuqlarni qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

³ O. Бўриев . Т. Хўжамбердиев. Этнологик атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. Қарши, 2004.

⁴ Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва назарий-методологик ёндашувлар.Т.: 2004.Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар.Т.: 2005.А.Асқаров .Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих.Т.: 2004.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda etnologik atamalardan fan bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va dars mashg'ulotlarida foydalanish usullari va yo'llari birinchi marta tadqiq qilinmoqda va ularni qo'llashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

BMIning nazariy-uslubiy asoslari va manbashunosligi. Etnografik mavzularni o'rganishda Prezident I. A. Karimovning nutqlari, risola va asarlari asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar va talabalar xar bir mashg'ulotda Yurtboshimiz asarlariga hamda milliy mafkura ruxidagi yangi adabiyotlarga tayanishlari shart. Shuningdek, mavzuning uslubiy asoslarini taniqli elshunos olim. professor I.M. Jabborovning jahon va o'zbeklar etnologiyasiga oid nashr etilgan ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalariga, tarix fanlari doktori, professor A.X. Doniyorovning "Mustaqil O'zbekiston etnografiyasi tarixshunosligining ayrim masalalari", "O'zbekiston etnografiyasi tarixidan ayrim lavhalar (XX asrning 20-80-yillari)" "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi. etnogenezi va etnik tarixi" asari hamda tarix fanlari doktori A.Ashirov va Sh.Atadjanovlarning "Etnologiya" o'quv qo'llanmasi (T., 2008) ga tayanildi. Qo'llanmani tayyorlashda O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi jildlaridagi maqolalardan va sunggi yillarda nashr etilgan tarix-etnologiyaga oid adabiyotlardagi asosiy prinsiplarga tayanildi. Ish davomida materiallar tarixiy prinsipiiallik , voqealikka xolis yondoshish, ilmiy tahlilning analiz ,sintez va qiyoslash uslublaridan foydalanildi.

BMIning yangiligi va amaliy ahamiyati shundaki, u yosh avlodni Vatanga sadoqatli. e'tiqodli va yetuk darajadagi komil inson qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri xisoblanadi. Yoshlar jaxon, Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, umuman, milliy qadriyatlarini puxta o'rganadilar.. Tadqiqot ishidan maktab, kollej, Oliy o'quv yurtlari talabalari ko'rs ishi, referat, mustaqil ishlar tayyorlashda foydalanishlari mumkin. Ishda ko'rsatilgan bir nechta metodlar etnologiyaga oid mavzular yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borishda qo'l keladi va undan unumli foydalanish mumkin. Umuman olgan maktab , kollej, litseylar va oliy o'quv yurtlarida etnologik atamalardan izohli tarzda foydalanish taritibi va usullari ko'rsatib berildi. Ishdan dars jarayonida fanlararo aloqani ta'minlash, darsni

mustahkamlash maqsadida foydalanish. Shuningdek, tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida filologiya, tarix, geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarga maxsus kurs sifatida o'qitilishi mumkin.

BMIning hajmi. Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. ETNOLOGIK ATAMALAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI.

I.1. Etnologik atamalar haqida tushuncha va ularning ta'lim-tarbiya jarayonida muhim manba sifatida ekanligi.

Yurtimizda mustaqillikdan keyin Respublikamizning turli tarixiy - etnografik mintaqalari, jumladan, Farg'ona vodiysi, Janubiy O'zbekiston, Buxoro va Xorazm kabi tarixiy-etnografik mintaqalari etnologiyasi va bu mintaqalarda yashovchi aholining o'ziga xos etnomadaniyatidagi lokal xususiyatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatdagi transformatsion jarayonlar, etnoslararo jarayonlar, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi turli diasporalar⁵ va irridentalar⁶ etnologiyasi, an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, zamonaviy shahar muhitida an'anaviy milliy qadriyatlarning saqlanib qolish omillari, zamonaviy etnik jarayonlar kabi ko'plab mavzularda tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir so'z bilan aytganda etnologiyaning tadqiqot mavzusi doimiy ravishda kengayib bormoqda va bu esa ma'lum ma'noda fanga mukammal ta'rif berish imkonini cheklamoqda. To'g'ri bugungi kungacha turli uslubiy qarashlar va g'oyalar asosida etnologiyaga berilgan o'nlab ta'riflar mavjud bo'lib, ular etnologiyaning ayrim muhim tomonlarini qamrab olgan. Etnologiya - turli etnik guruhlarining shakllanish va rivojlanish jarayonini, ulardagi etnik o'zlikni anglash, madaniy boshqaruv shakllarini hamda jamoaviy munosabatlar qonuniyatlarini, shaxslararo aloqalarini hamda ijtimoiy muhitni o'rganuvchi fandir.

Shubhasiz, mazkur ta'rifni etnologiyaga berilgan eng maqbul va mazkur fanning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yakuniy ta'rif deb aytib bo'lmaydi. Kelgusi avlod tadqiqotchilari tomonidan umume'tirof etiladigan etnologiyaning yanada mukammal ta'rifini yaratilsa ajab emas.

⁵ Diaspora (diaspora- lotincha- "joylashuv", Inglizcha- diaspora) tor ma'noda – Vavilonda Isroil podsholigini tomonidan (er. avv. 6 asr) bosib olingandan so'ng tashkil qilingan yashash joylari, keyinchalik esa Falastindan tashqari dunyo bo'yicha barpo etilgan yashash joylariga nisbatan aytilgan; b) keng ma'noda u yoki bu etnik guruhning tarixiy etnik vatanidan ajralgan holdayashash manzillariga nisbatan aytiladi. Masalan, koreys diasporasi, irland diasporasi.

⁶ Biror bir etnik guruh yoki etnosni o'zining milliy-etnik hamda siyosiy-davlat uyushmasi bilan chegara mintaqada yashasa irredanta deyiladi. Masalan, O'zbekistondagi qirg'izlar, turkmanlar va tojiklar diaspora bo'la olmaydi, ular irredanta deyiladi.

Hozirda zamonaviy etnologiyaning tadqiqot maydoni ancha keng bo'lib, uning turli yo'nalishlari u yoki bu ko'rinishda mazkur fanga yaqin bo'lgan yondosh fanlar bilan tutashadi. Ayniqsa etnologiya sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya, siyosatshunoslik, folklorshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etib boradi.

Har bir fan zaruriy bilimlarni jalb etgan holda aniq tadqiqot ob'ektini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Lekin har bir fandagi bilim ob'ektining o'ziga xosligi tadqiqotchilar oldiga tadqiq qilinayotgan ob'ektga oid to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish talabini qo'yadi.

Zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil uchun turli-tuman materiallar: tadqiqotlar natijasi va etnograf olimlarning turli dala yozuvlari, sayohatchilarning safarnomalari, kuzatuvlari, folklor namunalari va badiiy matnlar, etnosotsiologik va etnopsixologik materiallar, publitsistik matnlar, rasmiy hujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardan foydalaniladi. Bulardan tashqari tadqiq etilayotgan etnos vakillari bilan bevosita muloqot jarayonida ularning turli holatlarga bildirgan ta'sirlari, bahs-munozaralar va suhbatlarda bildirgan fikr-mulohazalari va dalillarining mantiqliligi, tevarak - atrofdagi turli ko'rinishlarni izohlash yo'llari va shaxsiy xulq-atvorlarini kuzatuv natijalari ham muhim rol o'ynaydi. Shubhasiz, bunday ma'lumotlarni yig'ish tadqiqotchi uchun ma'lum metodlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy etnologiyada o'ziga xos etnologik tadqiqot metodlari majmui shakllangan bo'lib, ularga dala tadqiqotlari, yozma manbalarni o'rganish, xalq og'zaki ijod namunalari to'plash statistik materiallar (avvalo turli davrlarda bajarilgan aholini ro'yxatga olish materiallari)ni tahlil qilish kiradi.

Ammo , etnologiya sohasida yana bir tadqiqot maydoni borki, bu uning nazariya qismi . Negaki , etnologiya fan bo'lib shakllangan ikki asr davomida kuchli maktablar⁷ yuzaga keldiki, endilikda ular tomonidan ishlatilgan ilmiy va regional terminlarga izoh berish va ular ustida tadqiqot oli borish zaruriyati tug'ilmoqda.

⁷ Masalan, Yevropada vujudga kelgan , diffuzionizm, evolyutsionizm, etnopsixologiya, funksionalizm kabi maktablar

Albatta, har bir fan o'zining maxsus uslubi va terminologiyasiga ega. Etnologiya fani ham mustaqil ilm sohasi sifatida boshqa ijtimoiy fanlar singari zamonaviy fan yutuqlariga tayanadi va dolzarb muammolarni o'ziga xos uslub va vositalarga asoslangan holda hal qiladi. Etnologik uslubni aniqlab olish uchun, dastavval, unga xos maxsus atamalarni bilish zarur. Yuqorida qayd qilinganidek, etnologiya ning asosiy tadqiqiy obekti kishilikning tarixiy birligi hisoblangan «xalq» yoki «etnos» tushunchasi bilan bog'liq bulib, uning kelib chiqishi, irqiy tuzulishi, xujalik tiplari, moddiy va ma'naviy madaniyatining turli tomonlari, ijtimoiy va oilaviy maishiy turmush muammolari, dunyoqarashi va ijodiy faoliyati kabi hayotiy muammolarni qamrab oladi. Etnologik atamalarni tekshirish bizga ko'p narsalarni aniqlashga yordam beradi. Chunonchi, ma'lum territoriyada yashagan xalqlar, ularning urug' va qabilalari haqida, u yoki bu davlatning ma'muriy chegarasi yoki bo'linishini, shuningdek, shu territoriyada yashagan kishilarning urf-odati, mashg'uloti kabi qator faktorlarni aniqlashda muhim vosita bo'ladi. Etnologik atamlarda xalq tilining rivojlanish etaplari, unda yuz bergan til o'zgarishlar va umuman tildagi har formalar evolusiyasini aniqlashda asosiy materiallardan biridir.

Etnologik atamlardan fanda va dars mashg'ulotlarida samarali foydalanish mumkin. Masalan tarix darslarida biror voqeani uning nomi bilan bog'lab tushuntirish o'quvchining tez o'zlashtirishiga yordam beradi. Misol: Nyu-York - «yangi shahar», «Yugoslaviya» - janubiy slavyanlar (yug «janub»), Neapol - «yangi shahar» grekcha «neos-yangi», «polis-shahar». Yoki qadimgi Skif qabilalarining tarixini tushuntirishda etnotoponomik material juda ham qo'l keladi.

Skiflar tilida «don yoki donu» so'zi «suv, daryo» degan ma'noni anglatadi. Dunyo xaritasidagi ko'pgina daryolar, jumladan, Don, Dnepr, Dnestr, Dunay kabilarning nomlari skifcha don, ya'ni suv, daryo so'zi bilan aloqador ekanligini, shuningdek skif qabilalarining ikki ming yildan ortiqroq Qora dengizi bo'yidagi cho'llarda ko'chib yo'rgani hamda yuqoridagi daryolarga yaqin yashaganliklarini aytish bilan o'quvchi tasavvurida aniq vaziyat gavdalanadi.

Etnologik atamalardan foydalanganda uning etimologiyasiga alohida e'tibor

qaratmoq lozim. Buning uchun tadqiqotchi yoki o'qituvchining o'zi uni darsda qo'llash uchun tayyor bo'lishi, fandan maxsus bilimga ega bo'lmog'i hamda adabiyotlar bilan tanishmog'i kerak. Aks holda etnologik termin o'qish – o'qitish va tarbiyaviy ishda zarar keltirish ham mumkin. Chunki ko'pgina mahalliy nomlar haqida turli xil qarashlar va «xalq etimologiya»lari to'qilgan. Ularning aksariyati ko'pchiligi ilmiy asosdan ancha yiroqdir. Ayrimlari diniy motivlarga ega bo'lishini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Shu sababli ko'pgina oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarida etnologiya nazariyasidan maxsus kurslar kiritilgan. Talabalar dialektologik, etnografik, geografik va folklor bo'yicha bo'ladigan ekspeditsiyalarda joy nomlarini to'plash bilan shug'ullanmoqda. Talabalar etnologiya bo'yicha ilmiy ma'ruzalar bitiruv-malakaviy va kurs ishlari yozganlar. Studentlarning dala ekspeditsiyalari programmalarida mahalliy etnonimlarni to'plash bo'yicha ham so'roqlik kiritilsa va nomlarni yig'ish ishi rejalashtirilsa, etnologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shilgan bo'lar edi. Ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayonida qo'shimcha material sifatida fanlararo alohida mustahkamlanganda, muhim manba sifatida qo'llanish yaxshi samara beradi.

Keyingi paytlarda ko'pgina olimlar etnonimlar tilshunoslikning asosiy tekshirish ob'ektlaridan biridir, bunda lingvistik usul asosiy va yetakchi o'rin tutmog'i kerak degan juda to'g'ri fikrni ilgari surmoqdalar. Geografik nomlar eng avvalo til qonunlariga asoslanadi. Shuning uchun ham ularni o'rganishda lingvistika juda muhimdir⁸.

O'zbek tilshunosligida qator ishlar ana shu fikrlar asosida ishlandi va qisman muvaffaqiyatga erishildi. Biroq bu ishlarda hozirgacha bir tomonlamalik sezilmoqda. Ba'zi tadqiqotlarda etnonimlarni tekshirish, tarixiy aspektda olib borilib, ko'pchilik hollarda tarix faktlariga ko'proq ahamiyat beriladi va lingvistik qonunlar ikkinchi rejaga tushirilib qoldiriladi. Ba'zan esa buning aksi bo'lmoqda, ya'ni nomlar butunlay til qonunlariga bo'ysundirilib, tarixiy faktlar chetlab o'tilmoqda.

⁸ Э.Мурзаев. Основные направления топонимических исследования, сб. «Принципы топонимики», М., 1964, стр.24.

Aslida etnologiyada atamalar jiddiy ravishda qabul qilingan. Shuning uchun ular turli toifalarga bo'linadi. Atamalarning ko'pchiligi mahalliy shevalardan olinadi. Shuning uchun etnonimlarni yozish va tadqiq qilishni transkripsiya bilan ma'lum xududda yashovchi sheva vakillaridan yozib olish orqali amalga oshirilmog'i kerak. V.A.Nikonov ham Etnonimlarni yig'ishda dialektologlarning tajribalarisiz ish ko'rish kulgili bir hol ekanligini qayd qilgan edi⁹.

Etnologiya atamasining o'zini fanda va dars mashug'ulotlarida qo'llash tartibi mavjud. Zero, bu atamaning tarixi uzoqdir. Ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi yunoncha - **etnos (xalq) va logos (fan)** so'zlaridan olingan bo'lib, «**xalq to'g'risidagi fan**» degan ma'noni bildiradi¹⁰. Etnologiya asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan «etnos» so'zi ilk bor qadimgi grek tilida uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI-V asrlarda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lmagan urug' va qabilalarga nisbatan qo'llanilgan. Aynan shu ma'noda bu atama rim madaniyati va lotin tilida ishlatilgan.

XVIII asrning oxirlariga qadar etnos tushunchasi nihoyatda chegaralangan tarzda iste'molda bo'ldi. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu termin ilmiy adabiyotlarda «xalq» («narod») ma'nosida kengroq qo'llanila boshlagan.

XIX asrgacha "etnologiya" iborasi maxsus fanga nisbatan emas, balki onda-sonda turli etnografik jarayonlarni tavsiflash maqsadida ishlatilgan. «Etnologiya» termini fanga ilk marotaba 1784 yil A.Shavann tomonidan olib kirilgan. Lekin ushbu fanning taraqqiyoti biroz keyingi davr bilan bog'liq bo'lib, fransuz olimi Jan Jak Amper tomonidan 1830 yilda "antropologik" (ijtimoiy) fanlarning umumiy tasnifini ishlab chiqish jarayonida xalqlar va ularning madaniyati to'g'risidagi yangi fanning nomlanishi tarzida maxsus izoh berilgan. Keyinchalik mazkur termin Yevropa davlatlariga juda tezlik bilan yoyilgan.

Bugungi kunga kelib ayrim mamlakatlarda mazkur fan «etnologiya», yoki «etnografiya» deb nomlansa, qator g'arb mamlakatlarida ushbu fanni «madaniy antropologiya» yoki «ijtimoiy (sotsial) antropologiya» deb yuritish an'anaga

⁹ В.А.Никонов. Дialeктология и топонимика сб. Вопросы русской диалектологии. Куйбыше. 1965. стр. 42-48.

¹⁰ R.H.Winthrop. Dictionary of Concepts in Cultural Anthropology. N.Y., Westport, Connecticut, L., 1991, p.101

aylangan. Xalqlar to'grisidagi fan - etnologiya tarzda shakllangan mamlakatlardan yana biri Germaniyadir. 1789 yil Germaniyada yevropalik bo'lmagan xalqlar va ularning madaniyatlarini o'rganuvchi «Yolkerkunde» deb nomlangan ilmiy maktabga asos solingan. XIX asrning 30-yillarida nemis sayyohlari va tadqiqotchilar tomonidan barcha o'rganilgan xalqlarga nisbatan "etnologiya" terminini qo'shib tadqiq qilish rasm bo'lgan. XIX asr o'rtalariga kelib esa "Yolkerkunde" va "etnologiya" iboralari bir xil ma'noda, ya'ni insoniyat madaniyatini tadqiq qiluvchi fan tarmog'iga nisbatan qo'llanilgan. Qizig'i shundaki, nemislar orasida mazkur termin hozirda ham ba'zida etnologiyaga sinonim tarzda qo'llaniladi. Bundan tashqari nemislarda xalqlar to'grisidagi Volkskund (xalqshunoslik) degan yo'nalish ham mavjud bo'lib, buni asosan nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar va ularning madaniyati o'rganadi. XX asrning so'nggi choragidan boshlab Germaniyada etnologik yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar ancha samarali natijalar bera boshlagan. Ayniqsa, bu borada Maks Planka nomidagi Etnologiya va antropologiya ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilayotgan izlanishlar alohida e'tiborga sazovordir.

Ma'lumki, yaqin o'tmishda sobiq Ittifoqda elshunoslik fani «etnografiya» deb nomlanib, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan institut va ilmiy tadqiqot markazlari ham shu atama bilan yuritilar edi. Biroq o'tgan asrning 90-yillaridan e'tiboran ushbu fanga nisbatan «etnografiya» atamasi bilan birga «etnologiya» atamasi ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Etnografiya yunoncha bo'lib, «etnos» -xalq «grafiya» tavsiflash degan ma'nolarni anglatgan. Mazkur fanning metodologik masalalariga bag'ishlangan qator ishlardan ko'rinadiki, «etnologiya» va «etnografiya» tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to'g'ri emas. Negaki, agar an'anaviy «etnografiya» u yoki bu etnosga (etnik birlikka) oid materiallarni to'plab, tizimlashtirib va uni ko'proq tavsiflab bersa, «etnologiya» etnos haqidagi barcha ma'lumotlarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususda umumiy xulosalar chiqaradi. Demak, «etnografiya» tushunchasi «etnologiya» tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq tushuncha, balki etnologiyaning ma'lum

bir qismi deb aytish mumkin. O'z navbatida shuni ham aytish mumkinki, har bir mamlakatda mazkur fanning paydo bo'lishi va nomlanishi o'ziga xos tarixga ega.

Etnologik atamalarni fanda qo'llash va dars mashg'ulotlarida qo'llash usullarini ishlab chiqishning bir qator afzal tomonlari mavjud. Birinchidan, etnologik atamalar klassifikatsiyasi bilan tadqiqotchi va o'quvchilar tanishadi. Ikkinchidan, etnologik atamalarning murakkab va juda ilmiyligiga sabab butun xalqlarining etnik tarixi va etnogenezi, umuman olganda hayot tarzining barcha jihatlarini qamrab olganligini tushunib yetadilar. Uchinchidan, atamalar fan salohiyatini ham belgilashi lozimligini anglaydilar.

I.2. Etnologik atamalar va ularning klassifikatsiyasi

Maxsus adabiyotlar va darsliklardan ma'lumki, etnologiya - antropogenez va etnogenez jarayonlar, sivilizatsiyalar va madaniyatlarning tarixiy rang-barangligi, dunyo xalqlari taraqqiyotida etnik omilning o'rni va roli, etnoslararo kommunikatsiya shakli va turlari, milliy-etnik o'zlikni anglash prinsiplari, an'anaviy mashg'ulot va xo'jalik-madaniy tiplari, moddiy va ma'naviy madaniyat, xalq bayramlari, o'yin va marosimlari, ijtimoiy munosabatlar jamoa an'analari, diniy qarashlarga oid umumlashtirilgan bilimlar bilan tanishtiradi. Shuningdek, xalq hayoti bilan bevosita bog'liq jarayonlar to'g'risida tizimli bilimlarni beruvchi fandir. Mazkur muammolarni atroflicha o'rganish shubhasiz yetuk va malakali mutaxassislarni ma'naviy tayyorlashda katta amaliy ahamiyatga ham ega. Shunday ekan etnologiya ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi barcha fanlar bilan aloqador. Demak, turli fanlarga oid atamalar ham etnologiyada qo'llaniladi. Ana shu jihatlaridan kelib etnologik terminlar turli shaklda klassifikatsiyalash mumkin. Umumiy holda ikkita shaklda:

1. Ilmiy-internatsional terminlar.
2. Regional –ilmiy terminlar.

Ilmiy-internatsional terminlar- butun dunyo etnolog va ijtimoiy fan mutaxassislari tomonidan kelishuv asosida qabul qilingan. Ular bevosita etnologiya fanida maxsus qo'llaniladi. Bunday terminlarga quyidagilar kiradi. Masalan, Etnotsentrizm, Etnos , Etnonim , Etnonimika, Etnolingvistika, Etnogeografiya, Etnogenez, Etnikos, Etnik psixologiya, Etnogenetik jarayon, Etnik jarayon, Etnografik guruh, Etnik guruh, Etnik birlik, Etnik antropologiya, Tarixiy-etnografik viloyat, Mikroetnos, Makroetnos, Aborigen, Avtohton, Substrat, Superstrat, Konsolidatsiya, Integratsiya, Innovatsiya, Initsiatsiya, Genezis, Antropogenez, Etnik madaniyat, Inkulturatsiya, Etniklik¹¹ va boshqa atamalar. Yuqorida aytilgan atamalar etnologiyaga oid mavzularni ilmiy tadqiq qilishda ishlatiladi. Shuningdek, ulardan oliy o'quv yurtlarida dars berish jarayonlarida

¹¹ А.Аширов,Ш.Атажанов.Этнология. Тошкент.2006.89-94 бетлар.

foydalanish mumkin. Ilmiy tahlilda analiz va sintez usulini qo'llab ulardan foydalansa bo'ladi.

Dars jarayonlarida etnologik atamalarni qo'llash bir oz qiyinroq kechadi. Shu sababli bunday jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa "sirli so'zlar", va "zinama-zina" texnologiyalari atamalarni o'zlashtirish kaliti hisoblanadi. Chunki bunday uslubda atamalar davrlashtirilgan holda, ketma-ketlikda, ularning lug'aviy va mantiqiy ma'nosi topiladi.

Regional –ilmiy terminlar-etnologiyaga aloqador bo'lgan so'zlar kiradi. Ular ma'lum bir etnografik region, etnografik guruh yoki asosiy etnos hayotini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari haqida ilmiy tadqiqot yoki dars mashg'uloti olib borganda qator etnonim va etnotoponim yoki xo'jalik mashg'ulotlarga doir regional atamalarni qo'llash zarur. Aytaylik, papuaslar, tasmanlar, myao-yao. Melaneziya, Papuasiya, kakos, banan va hakoza.

Etnologik atamalarni davrlashtirish nuqtai-nazaridan ham klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Ibtidoiy davrga oid atamalar. Unga genezis, etnogenez, matriarxat, jamoa, urug', to'da va hakoza kiradi.

2. O'rta asrlar. Bu davr uchun urug', qabila, xalq, etnik tarix, migratsiya va konsolidatsiya, assimilyatsiya kabi so'zlar ishlatiladi.

3. Yangi davrga oid atamalar. Millat, innovatsiya, konsolidatsiya va hakoza.

Etnologik atamalarni etnogenez, etnik tarix, an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush tarzi va xo'jalik-madaniy tiplarga qarab ham turlash va ishlatish mumkin.

Ma'lumki, «xalq» degan tushuncha ancha keng ma'noga ega. Ba'zan xalq deb bir to'p kishilarni yoki ma'lum sonli ommani tushunsak, ba'zan bir necha elat va millatlar yashaydigan davlat yoki mamlakat aholisini tushunamiz. O'zbek klassik adabiyotida «xalq» so'zi ikki ma'noda: yaratish, borliq yoki odamlar, deb ta'riflanadi¹². Aslida etnologiya fanida muayyan hududda joylashgan, tili, kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, turmush tarzi va tashqi umumiy xususiyatlariga ega bo'lgan tarixiy birlikni anglatadigan xalq ma'nosida «**etnos**»

¹² Қаранг :И.Жабборов. Жаҳон этнологияси асослари. Тошкент.2007.48-б

atamasi ishlatiladi. Har bir etnos o'zining nomi (etnonim)ga ega bo'lib, ma'lum bir etnik guruhga oid ekanligini anglashi zarur. Etnik birlik ayrim shaxs yoki kishilarning istagi bilan emas, tarixiy taraqqiyotning obektiv zaruriyati natijasida namoyon bo'ladi.

Etnoslar muayyan tarixiy davrning mahsuloti sifatida o'zining etnogenezi (kelib chiqishi) bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham etnoslarni, yuqorida qayd qilganimizdek, bir necha maxsus tarixiy-etnologik atamalar va fan sohalari bilan hamkorlikda o'rganiladi. Jumladan, Paleoantropologiya fani, umuman odamning paydo bo'lishi va joylashuvini o'rganibgina qolmay, balki ayrim etnoslarning tub joy aholisi (avtohton yoki aborigen) ekanligini yoki boshqa yerdan migratsiya natijasida ko'chib kelganligini aniqlab beradi. Antropologiya fani esa ularning qaysi irqqa oid ekanligini aniqlab beradi. Umumiy ilmiy atamalardan «irq» tushunchasi orqali ilgari aytilganidek, etnoslarning tashqi - jismoniy belgilari - badan terisining rangi, kalla suyagi va sochlarining tuzilishi, burni va ko'zining shakli, bo'yi va boshqa xususiyatlari bilan aniqlanadi. Etnologiya «sof» irqni emas, balki tabiiy jihatdan o'zaro yaqinlashgan, faqat tashqi biologik xususiyatlarga ega bo'lgan barcha irqiy birlashmalar, ya'ni antropologik tiplarni o'rganadi.

Etnoslarning moddiy madaniyati tarixini va xususiyatlarini arxeologiya fani bilan hamkorlikda aniqlash mumkin. Madaniyat tushunchasi umuman tarixiy jihatdan inson qo'li va aqli yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni anglatadi. Rus tilida «kultura» so'zi aslida lotincha suz bo'lib «ishlab chiqarish», «yasash, yaratish» degan ma'noni anglatadi. Etnologik jihatdan bu ma'noga moddiy madaniyatda xo'jalik qurollari va mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va bezaklar, taom va idish-tovoqlar, turar joy va uylar, badiiy faoliyat mahsulotlari va hokozolar kiradi. Keng ishlatiladigan atamalardan «genezis» so'zi, yuqorida ko'rganimizdek, grekcha «tug'ilish, kelib chiqish manbai» ma'nosini anglatib, ayrim irqning, etnoslarning kelib chiqishiga oiddir. O'z navbatida arxeologiya fanida ham ishlatiladigan tabiiy tarixiy jarayon bilan bog'liq

«urug'», «qabila», «jamo'a», «elat yoki xalq», «millat» kabi ijtimoiy tushunchalar etnologiyada keng foydalaniladi.

Ijtimoiy munosabatlarni aniqlashda va ta'riflashda umumiy tushuncha va atamalardan tashqari keng ishlatiladigan urug' jamoasi, qishloq yoki ovul jamoasi, qushnichilik (hududiy) jamoasi, qabila ittifoqi va kengashi kabilar muhim ahamiyatga ega. Urug'chilik munosabatlarini tartibga solishda zarur bo'lgan nikoh bilan bog'liq maxsus tushunchalar ham mavjud. Masalan, urug'-chilik tartiblarini o'rganishda «ekzogamiya» (grekcha «ekzo» -tashqi, «gamos» - nikoh) so'zi urug' yoki qabila ichida nikoh tartibi, ekzogamiyaga qarshi holatda boshqa urug' yoki fratriyadan uylanish man qilinadigan odatlarni ifodalovchi atamalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan kup uchraydigan ortokuzen yoki kross-kuzen¹³ (grekcha «ortos» tупpa-tug'ri, «kross» — inglizcha tutashgan, «kuzen» - fransuzcha tog'a-ji-yanlar) nikoh tartibi bo'lib, faqat aka-ukalarning farzandlari orasidagi nikoh munosabatlarini anglatadi. Yoki ibtidoiy nikoh shakllaridan «poligamiya» (grekcha kupnikohlik), «poliandriya» («poli» - ko'p, «andre» - er, ya'ni ko'p erlik) kabi odatlar hozirgacha, masalan, Tibetda saqlangan, Markaziy Osiyo ko'chmanchilari, Sibir xalqlari orasida yaqin davrlargacha saqlanib kelgan «devirat» (lotincha «levir» - aka-uka) odati bo'yicha beva qolgan aka yoki ukaning xotiniga uylanish, «sororat»¹⁴ («soror» xotinning singlisi) xotini vafot etsa, uning singlisi yoki bir necha singillariga uylanish odatlari ham asli ibtidoiy nikoh shakllaridan qolgan tartiblardir.

Matriarxat (ona urug'i)dan patriarxat (ota urug'i)ga o'tish davriga oid munosabatlarni belgilovchi ayrim atamalar ham mavjud. «Kuvada» (fransuzcha «tuxum bosish») tushunchasi otaning bolaga nisbatan o'z huquqini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan maxsus odat (masalan, hindilarda ona tug'ayotganda ota ham o'zi tug'ayotgandek ko'rpa orasiga kirib og'ir kuchanib yotish rasm bo'lgan), yoki «avenkulat» (lotincha «amaki») tartibiga ko'ra onaning aka-ukalari bilan bolalari

¹³ М.Жабборов. Жаҳон этнологияси асослари. Тошкент.2007.45-бет

¹⁴ O'sha asar. O'sha joyda.

(amakiyachalar) o'rtasida maxsus munosabatlar o'rnatilgan, amakisi jiyanining tarbiyasi va taqdiriga javobgar hisoblangan.

Etnoslarning xo'jalik faoliyati va mashg'uloti bilan bog'liq turli maxsus atamalar ibtidoiy xo'jalik shakllarini ifodalovchi yig'im-terimchilik, ovchilik, baliqchilik, keyinroq paydo bo'lgan chorvachilibva dehqonchilikka oid kup tushunchalar uchraydi. Masalan, dehqonchilik yerga ishlov berish usuliga qarab bir necha xilga bo'linadi (o'rmon yoki butazorlardagi daraxtlarni kesib, o't yoqib, kuydirib, kufiga urug' sepish usuli, yerni almashtirib partov yerga ekin ekish usuli, oddiy tayoq yoki chopqi (ketmoncha) bilan yerga ishlov berish usuli, omoch bilan hayvon kuchidan foydalanib yer haydash usuli va hk.). Asosiy tirikchilik manbai hisoblangan chorvachilik ham har xil tarmoqqa bo'lingan (yilqichilik, tuyachilik, bug'uchilik kabi sohalar). Hunarmandchilikning tarmoqlari juda ko'p bo'lib, turli etnoslarga xos har xil maxsus atamalar ishlatilgan. Masalan, umumiy atamalardan usta-shogirdlik, sex tuzumi, uskunalar va ish uslubi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi suzlar ko'p uchraydi.

Etnoslar joylanishi, uy-joy qurilishi, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklari, bezaklari va boshqa moddiy-madaniy buyumlari, taomi va ovqatlanish tartibi bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Hozirgacha ba'zi yerlarda chaylalar yoki yertulalar (chum, vigvam, kata), chodir va qoraui (utov)lar guvala, xomg'isht, yog'och yoki toshdan qurilgan, ustunlargayoki poydevorga urnatilgan, tekis chuqqaygan yoki gumbazsimon tomli oddiy uylardan to zamonaviy kupqavatli shahar binolari, kushk va saroylargacha uchratish mumkin. Etnologiyada mazkur turar joylar va ular bilan bog'liq buyumlar, munosabatlar va irimlar maxsus atamalar bilan belgilariadi. Turli tabiiy sharoitga moslashgan va milliy xususiyatni ifodalovchi kiyim- kechagi (tikilishi, material, shakli, naqsh-bezaklari) va taomlari (gusht, sabzavot, baliq, sut mahsuloti, usimlik, pishirish usuli va hokazolar) ham ayrim etnoslarning o'ziga xos atama va tushunchalarida namoyon bo'ladi. Kiyim-kechak va taomlar ham kundalik turmushda, bayramlar va diniy marosimlarda farqlanib turlicha bo'lishi mumkin.

Ma'naviy madaniyat tushunchalariga oid diniy e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq atamalar juda ko'p ishlatiladi. Masalan, ibtidoiy din shakllaridan totemizm, magiya (sehrgarlik), shamanizm, animizm, tabiat kuchlari va arvohlarga sig'inish kabi ibodat shakllari va marosimlarni aniqlovchi turli atamalar, shuningdek, jahon dinlari bilan bog'liq xudo, pir, avliyo, qurbonlik, har xil diniy odat, marosim va irimlarni ifodalovchi atamalar mavjuddir.

I.3. Etnonimlar va Etnotoponimlar.

Etnologik atamalar klassifikatsiyasida etnonimlar va etnotoponimlar alohida o‘rin egallaydi. Ular tabiat va jamiyatdagi ma‘lum o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda ma‘lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Ma‘lumki, etnonim va etnotoponim vujudga kelishi va o‘zgarishi xalq tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Ular uzoq davrlardan beri mavjud bo‘lib, xalq hayotida yuz bergan voqea va hodisalarning atamasi sifatida saqlanib qolgan.

O‘zbekistonda juda ko‘plab urug‘, qabila va xalq nomlari bilan ataluvchi etnotoponimlar uchraydiki, ularning deyarlik ko‘pchiligi Mang‘it, Do‘rmon, Jaloyir, Qirq, Qo‘ng‘irot, Ming, Xitoy, Qipchoq va hokozolar. Dunyoning boshqa joylarida jumladan, Moldaviya, Sibir, Boshqirdistonda shuningdek, Afg‘oniston, Eron kabi mamalakatlarda ham uchraydi. Bu esa shu xalqlarning tarixiy aloqalari haqida ma‘lum darajada guvohlik beradi.

Etnotoponimlar juda uzoq davrning mahsuli bo‘lib, bir necha asrlardan beri saqlanib kelmoqda. O‘zbekiston hududida shu kungacha juda ko‘plab qabila va xalq nomlari saqlanib qolgan. Mualliflar¹⁵ keltirgan quyidagi nomlar bunga misoldir.

Andi	Mang‘it	Turk	Qiyot
Arab	Mochoy	Uyg‘ur	Qipchoq
Axtachi	Ming	Uyshon	Qirq
Baliqchi	Mitan	Xitoy	Qurama
Bayot	Nazarbek	Chimboy	
Do‘rmon	Nayman	Yuz	
Jaloyir	Nukus	Urchin	
Kenagas	Olot	Qang‘li	
Kerovchi	Ochamoyli	Qarluq	
Kushon	Sayot	Qatag‘on	
Laqay	Sirg‘ali	Qashqar	

¹⁵ Қаранг.А.Аскарлов. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.Тошкент.2003. К.Шониёзов . Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.Тошкент.2001. А.Аширов. Этнология.Тошкент.2007.49-54 б.

Bulardan tashqari qozoq va turkman xalqlarining urug‘lari nomi bilan ataluvchi nomlar ham ko‘plab uchraydi. Bu faqat o‘zbek xalqining qozoq va turkman xalqlari bilan juda qadimlardan boshlangan tarixiy aloqasi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Xorazmdagi Daryolik Etnonimining mavjudligi qachonlardir Amudaryoning Uzbo‘y va Sariqamish orqali Kaspiy dengiziga quyilgan degan fikrni ma‘lum darajada tasdiqlasa, bu yerda os yoki alan qabilalarining nomi bilan ataluvchi qal‘alar – Os qal‘a, Alan qal‘a mavjudligi asosida Xorazm xalqi bilan hozirgi Kavkazdagi osetin boshqa xalqlarning tarixiy aloqasi bo‘lishi mumkin degan fikr paydo bo‘ldi. Darhaqiqat, buning isbotini ham etnonimlar o‘zida mujassamlashtirgan dostonida zikr etilgan, Diyorbakir, Akcha, Bayangan, Shohsanam deb nomlanuvchi qal‘aning vayronalari saqlangan. Shunisi qiziqki, cheksiz sahro qo‘ynida «Oshiq G‘arib va Shohsanam», ayni shu nomlar bilan ataluvchi qal‘alar hozirgi Ozarbayjon davlati hududida ham mavjud. Holbuki, shunday ekan etnologik nomlarni o‘rganish doimo tarix va arxeologiya, geografiya kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilishi va ularning yutuqlariga asoslanmog‘i lozim.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, etnoetnonimlarni darsda albatta qo‘llash zarur. Etnoetnonimlarni fanda va mashg‘ulotlarda qo‘llaganda ularning manbasiga alohida e‘tibor qaratish zarur va albatta ko‘chirmalar keltirilishi kerak. Masalan, geograf Yoqut Hamaviy musulmon mamlakatlaridagi ko‘plab shahar va qishloqlarga ta‘rif bergan. Ko‘pchilik nomlarning etimologiyasini aniqlashga harakat qiladi. U ko‘pgina etnonimlar tarkibida uchraydigan ob‘ektni yoki uning belgi – xususiyatini bildiruvchi so‘zlarning izohini beradi. Masalan, kos – Xorazmda atrofi devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on; obod – shahar, qishloq rustaklar tarkibida ko‘p uchraydi. Forscha so‘z bo‘lib, «o‘zlashtirilgan, obod qilingan» degan ma‘noni beradi; deh – qishloq degani. Olim bu tipdagi komponentlar bilan yasalgan nomlarni guruhlaydi.

Hozirgi O'zbekiston hududidagi joy nomlari haqida Beruniy, Qoshg'ariy, Narshaxiy, Rashiddin, Bobur, Munis, Ogahiy¹⁶ kabi olimlarning asarlarida bebaho materiallar saqlanib qolgan. Garchi bu olimlarning asarlari joy nomlarini maxsus o'rganishga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ular o'zlari ko'rgan ayrim shaharlar, shahar, qishloq. Dengiz va daryolar nomi haqida qiziqarli fikrlar bayon etgan.

O'zining boy ilmiy merosi bilan dunyo fani taraqqiyotida katta o'rin tutgan xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniyning deyarli hamma asarlarida ko'plab shaharlar tilga olinadi.

Mashg'ulotlar paytida manbalardan tashqari keyingi yillarda qilingan ilmiy ishlardan ham foydalanish va ularni o'quvchiga yetkazish lozim. Masalan, V.V.Bartold, M.Ya.Masson, V.V.Radlov, I.Yu.Krachkovskiy, A.Yu.Yakubovskiy, Ya.D.Polivanov, S.Ye.Malov, S.P.Tolstov, E.M.Murzayev, P.P.Ivanov, Ya.G'ulomov, M.Yo'ldoshev, S.Kamolov va boshqa olimlarning asarlari haqida to'xtalish zarur.

Ayniqsa, H.Hasanovning «O'rta Osiyo nomlari tarixidan» (1965), «Geografik nomlar imlosi» (1962), «Geografik terminlar lug'ati» (1964), «Yer tili» (1980) kabi asarlari respublikamiz etnonimlarini o'rganish sohasidagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Etnonimlar va etnoetnonimlarni o'rganishda o'zbek shevashunoslarining xizmatlari ham kattadir. Ular o'zlari o'rgangan lahjalar tarqalgan qishloq, shahar nomlari haqida, ularning etimologiyasi borasida dastlabki fikrlarni bildirgan edilar. Ularning etnoetnonimlarni yig'ishdagi tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. S.Qorayev «Geografik nomlarning ma'nosini bilasizmi?» (1970), «Geografik nomlar ma'nosi» (1979), T.Nafasovning «O'zbekiston Etnonimlarining izohli lug'ati» (1988) kabi asarlari va himoya qilingan o'nlab dissertatsiyalar respublikamizda etnologiya fanining ancha rivojlanganidan darak beradi. Z.Do'simovning «Xorazm etnonimlari» (1985), «Joy nomlarining siri» (2001), «Etnonimika asoslari» (2002) kabi tadqiqotlari, N.Oxunovning izlanishlari,

¹⁶ Каранг. Беруний. Т.А. Тошкент. 1969. Рашид-ад-дин. Жомъе-ут-таворих. Баку. 1962. Бобурнома. Т. Мерос. 1992. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. Т. Мерос. 1992. Абулғозий. Шажарайи турк. Т. Мерос. 1992. М. Қошғарий. Девонул-луғатит турк. 1992.

T.Ernazarovning etnologikaning nazariy masalalariga bag'ishlangan asarlari ushbu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

Bu xalqlar qadimdayoq siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham qozoq, turkman xalqlari tarixini o'zbek xalqi tarixi bilan ajralmas holda o'rganmoq kerak. Etnoetnonimlarni tekshirar ekanmiz, etnik nomlarning atalish usullari va prinsiplari, shuningdek ularning Etnonimlarga munosabati masalasiga to'xtalib o'tish lozim.

Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, qabilaning nomi, chamasi ko'pincha tasodifiy suratda paydo bo'lgan, ongli suratda tanlab nom qo'yish kamroq bo'lgan: qabilaning o'ziga bergan nomi boshqacha bo'lgani holda qo'shni qabilalar tomonidan mazkur qabilaga berilgan nom bora-bora uning doimiy nomi bo'lib qolar edi, bunday hodisalar ko'p bo'lib turgan.

Demak, qabilalar nomi mazkur qabilaga xos xususiyatlar asosida vujudga kelgan. Ming, yuz, qirq, to'qson kabi qabilalarning nomlanishida yana bir xarakterli xususiyat shuki, nomlar ko'pincha boshqa biror qabila yoki urug' tomonidan beriladi. Qabila nomlari asta-sekin o'sha qabilalar mazkur qabila yashagan joyni shu qabila nomi bilan atay boshlaydi. Keyinchalik qabila nomi joy nomiga aylanib qoladi. Demak, qabila nomi joy nomidan oldin paydo bo'ladi. Etnoetnonimlar shu nom bilan ataluvchi xalq yashayotgan yoki yashab ketgan hududdagina paydo bo'ladi.

Xullas, etnologiyada etnoetnonimlar asosiy o'rinni egallaydi va joy nomlarining ma'lum bir qatlamini tashkil etadi. Etnoetnonimlardan tashqari qator etnonimlar ham mavjudki, ularsiz tadqiqot o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ushbu o'rinda etnonima nima ekanligi haqida to'xtalib o'tamiz. U yunoncha so'z bo'lib - xalqlarning nomlarini anglatuvchi atamadir. Shunday nomlarni tadqiq qiluvchi fan ham shakllangan. Bu etnonimikadir. Demak, Etnonimika - qabila, xalq va boshqa etnik birliklarni o'rganadigan fan. Etnos doirasida etnotsentrizm nazariyasi ham rivojlangan bo'lib, u yunoncha - insonning barcha hayotiy hodisalarini o'zi uchun namuna deb bilgan o'z etnik guruhi qadriyatlari yuzasidan baholashga moyilligi;

o'z hayot tarzini boshqalar ishidan afzal ko'rishni ilgari suruvchi nazariyadir.
Demak , etnos va etnonim atamalari atrofida ushbu masalalarni ham yoritish zarur.

II-BOB. DARS MASHG‘ULOTLARIDA ETNOLOGIK ATAMALARNI QO‘LLASH USULLARI.

II.1. Dars mashg‘ulotlarida etnologik atamalardan foydalanish tartibi.

Umumlashtirish, umumlashma, mushohada yurita olish inson tafakkurining ulug‘ mo‘‘jizasi, fikrlash tojidir, ammo insonning hayotiy ehtiyoji tabiatning serqirra sirlarini bila borish qadimda inson uchun borliqdagi yakka narsalar, voqea hodisalarni, hatto odamlarni bir-biridan farqlash, alohida ajratib atash, ya’ni ularga alohida nom berish ehtiyojini tug‘dirgan. Mana shular natijasida fanda atamalar yuzaga kela boshlagan. Atamalar alohida, yakka holda olingan narsalar jo‘g‘rofiy ob’ektlar, ijtimoiy-tabiiy hodisalar uchun berilgan maxsus nomlardir. Agarda atamalar narsa va hodisalar haqidagi tushunchani umumlashtirib, mujassamlab atasa, uni fanlararo farq qilishni o‘rganish zarur. Binobarin atamalarni o‘rganishda onomastikaning roli kattadir. “Onomastika “ so‘zi asli grekcha bo‘lib, onomastike- «nom qo‘yish san’ati» degan ma’noni bildiradi.

Atamalarning onomastik tahlili fikrlashga bilishga, esda saqlashga, to‘g‘ri qo‘llashga, to‘g‘ri yozishga, to‘g‘ri talaffuz qilishga qaratilgan ona tili, adabiyot, geografiya, tarix, astronomiya, jamiyatshunoslik kabi fanlar onomastik materiallarga boy fanlar uchun zarurdir. Onomastik tayyorgarliksiz har qanday fanni o‘qitishda ilmiy-metodik, g‘oyaviy-siyosiy yetishmovchilik sezilib turadi. Haqiqatan ham, geografiyani geografik kartasiz, unga tushirilgan Etnonimlarsiz, gidronimlarsiz o‘qitish mumkin emas.

O‘quvchilarda bizning daryo, shahar, ko‘cha nomlarining kelib chiqishiga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Navoiy, Amir Temur. Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi bular bizning nomdor, buyuk vatandoshlarimiz sharafiga qo‘yilgan joy nomlaridir.

Bu shaharlar tarixi, ular aholisining urf-odatları, ularga nega bunday nomlar berilganligi haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar juda katta qiziqish bilan qabul qiladi. Yozuvchi K. Paustovskiy nomlar to‘g‘risida shunday yozadi: «Nomlar -

mamlakatning xalqchil, shoirona belgilari, ular xalqning turmush tarzi, tarixi, qiziqishini alohida tomonlari haqida gapiradi»¹⁷. Har qanday atamanining asl ma'nosini bilish zarur.

Aks holda etnologik atamalar o'qish-o'qitish va tarbiyaviy ishda zarar keltirishi ham mumkin. Chunki ko'pgina mahalliy nomlar haqida turli xil afsonalar va «xalq etimologiya» lari to'qilgan ularning aksariyat ko'pchiligi ilmiy asosdan ancha yiroqda. Ayrimlari diniy motivga ega»¹⁸.

Ijtimoiy fanlarning deyarli barchasida etnologik atamalar qo'llaniladi. Ammo atamalarni fanda qo'llash uslublari va tartiblari mavjud.

Har bir o'qituvchi o'rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, regional atamalarni o'rganishi, ular haqida ma'lumot to'plashi va ulardan dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanishi mumkin. Bunda darsning ta'lim-tarbiya saviyasini yanada oshiradi, o'quvchining o'zi yashayotgan hududdagi nomlarga qiziqishi ortadi. Masalan, ona tili darslarida qo'shimcha material sifatida etnologik materialdan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Ona tili darsida «Turdosh va atoqli otlar», «Kishi nomlari», «Ot yasovchi qo'shimchalar va ko'rsatkichlar», «Qo'shma otlarning yasalishi» kabi mavzularni o'rganayotganda ko'proq mahalliy joy nomlaridan misollar keltirishimiz mumkin. Otlarni tuzilishi jihatdan turlarga ajratishda ham shunday yo'l tutgan ma'qul. Masalan: G'ozovot, Oyoq, Anvar, Xiva kabilar sodda ot, Ichanqal'a, Qo'shko'pir, Bekmurod, O'rtayop, Qoraqum kabi nomlar qo'shma ot ekanligi farqlanadi.

Atoqli otlar ichida joy nomlari – etnonimlar alohida o'rin tutadi, ular tilimiz lug'at boyligining salmoqli qismini tashkil qiladi. Etnonimlar tilimizning lug'at tarkibida uzoq davrning mahsuli sifatida o'zbek tilining tarixiy leksikasi va dialektologiyasi, fonetikasini o'rganishda, so'z yasalishiga xos bir qator xususiyatlarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday atamalar qatoriga qanday ob'ektlarning nomlari kirishi dars jarayonida o'quvchilarga qayd etib

¹⁷ Бондалатов А.Д. Русская ономастика. М., 1983, стр. 213

¹⁸ O'sha asar. str. 223

o‘tiladi. Masalan, mamlakatlar va davlatlar nomlari (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Angliya, Amerika, Hindiston, Yaponiya); shahar nomlari (Xiva, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Namangan); daryo va dengizlar nomlari (Amudaryo, Sirdaryo, Volga, Zarafshon, Orol dengizi, Kaspiy dengizi); tog‘ nomlari (Yo‘g‘ir, Qumaloq, Jiyda qishloq, Navbahor ko‘chasi) va boshqalar.

«Turdosh va atoqli otlar» mavzusini o‘tish jarayonida otning ma’no turlari o‘quvchilarga atroflicha tushuntiriladi. Boshlang‘ich guruhlarda bu haqda olingan bilimlar eslatiladi. Etnonimlarning atoqli otlar ichida alohida o‘ringa egaligi, bular tilimiz boyligining salmoqli qismini tashkil etishi ta’kidlanadi.

«Turdosh va atoqli otlar» mavzusini mustahkamlashda atoqli otlar yuzasidan o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Boburnomada eslatilgan daryolardan qaysilarning nomlarini bilasiz?
2. O‘zbekistonda nechta urug‘ yashaydi va ular qanday nomlanadi?
3. Qaysi qishloq (mahalla, ko‘cha) da yashaysiz?, Uning nomi qanday paydo bo‘lgan?
4. Qo‘shni qishloqlar nomini ayting?
5. Siz yashab turgan hududda qanday tarixiy etnonimlar uchraydi? Ularning nomlanishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Qo‘shni mamlakatlar poytaxtlari nomini aytib bering.

Ushbu savollarga javob topish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradi.

Darsni mustahkamlash jarayonida joy nomlari bo‘yicha didaktik o‘yinlar o‘tkazish ham darsning samaradorligini oshiradi. Bunda guruhda uch guruhga bo‘lib, birinchi guruhga shahar nomlarini, ikkinchi guruhga qishloq va ko‘chalar nomlarini, uchinchi guruhga esa daryo va dengizlar nomlarini topish va daftarlariga yozish topshiriq qilib beriladi. Qaysi guruh eng ko‘p topgan bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan o‘quvchilarning ijodiy izlanishga yo‘naltirish uchun birinchi qatordagi o‘quvchilarga «N» harfi bilan boshladigan etnonimlarga misol topish va daftarlariga yozish topshiriq qilib berish mumkin.

Darsni mustahkamlashda yana bir o'yin o'tkazish mumkin. Bunda bir o'quvchi biror shahar nomini aytadi, keyin har bir o'quvchi aytilgan shahar nomining oxirgi harfi bilan boshlanadigan shaharlar nomini birin-ketin aytadi. Masalan: Farg'ona-Andijon-Namangan-Nukus-Samarqand va hokozolar.

Masalan, ona tilida qo'shma so'zlar yozishni o'rganish ham mumkin. Talabalarga "etnos" so'ziga birikkan atamalarni yozing deyish mumkin.

1-jadval

№	Yasalishi	Misollar
1	Etnos+ grafos	
2	Etnos+logos	
3	Etnos+siti	
4	Etnos+sotsiologiya	
5	Etnos+psixologiya	

Mavzuni mustahkamlash jarayonida izohli diktant o'tkazish mumkin, bunda o'qituvchi etnologik atamalardan foydalanadi.

1-tarqatma

Qo'shma so'zdan iborat 10 ta joy nomini toping, ular qaysi turkumdagi so'zlardan tarkib topganligini aniqlang, imlosini izohlang.

2-tarqatma

Ikkinchi qismi daryo, ko'l, ariq, buloq so'zlaridan iborat qo'shma joy nomlariga misollar keltiring.

O'quvchilarga yuqoridagi kabi joy nomlarining kelib chiqishi, lug'aviy ma'nosi haqida tushuncha berish, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, Etnonimlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Geografiya fani mashg'ulotlarida ham etnoetnonimlardan foydalanish mumkin Masalan, bu sohasida muhim manbalardan biri Z.M.Boburning "Boburnoma" asaridir. Asarda ko'plab etnonim, gidronim, antroponimlarga duch kelamiz.

Bobur o'zining bu asarida ko'plab etnonimlarga ta'rif berib o'tgan, ularning ta'rifi, joylashgan geografik o'rni, chegaralarini bayon etgan. O'sha joyning

o‘simliklari va hayvonot dunyosi haqida to‘liq ma’lumot bergan¹⁹. Bobur Farg‘ona to‘g‘risida quyidagilarni bildiradi: “Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma’muraning kanorasida voqe bo‘libtur. Sharqi Qoshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekanur. Misli Olmaliq va Olmatu va Yangikim, kutublarda Tarozkent bitirlar... Muxtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon. Girdogidri tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidagi, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qdur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas”²⁰.

Bobur yuqoridagi fikrlaridan tashqari bu viloyatda yetti shahar borligini, bulardan beshtasi Sayxun (Sirdaryo)ning janubiga, ikkitasi shimol qismiga joylashganligini qayd etadi. Mana shu keltirilgan yettita shaharning hammasini birma-bir tilga olib o‘tadi. Bo‘lar Andijon, Marg‘ilon, Isfara, Xo‘jand, Kandibodom, Axsin va Kosondir.

Andijonni “Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur... Uch darvozasi bor. To‘qqiz tarnov suv kirar... Eli turkdir... (5-6-bet), deya madh etsa, Marg‘ilonni “... pur ne‘mat anori va urug‘i asri ko‘p xub bo‘lur” (6-bet), Isfarani “Musmir daraxtisi bisyordir, vale bog‘chalaridan aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va qo‘hiydur...” (7-bet), Xo‘jandni “...ovlog‘i va qishlog‘i bisyor yaxshidir. Oq kiyik, bug‘u, maral, qirg‘ovul va tovushqoni ko‘p bo‘lur” (7-bet) deb ta’riflaydi.

Boburning Konigil to‘g‘risida aytgan gaplari e’tiborga loyiqdir. Ba’zi birovlar uni Koni gil, ya’ni, tojikcha “tuproq Koni” derlar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh Ibn Ro‘zbexon “Mehmonnomai Buxoro” asarida Koni gul, ya’ni, “gullar koni” deydi. Bobur esa “bu o‘langning oti koni-obgir” deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqindir: chunki, Siyob suvining “atrofi tamom obgir”, ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi “Boburnoma”da bir necha joyda uchraydi). Demak, Koniobgir asta-sekin o‘zgarib, Konigil shaklini olgan.

¹⁹ Охунов Н. Бадийй асарда жой номлари. Совет мактаби, 1984, 5-сон, 20-б.

²⁰ Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1960

“Boburnoma”da shahar, viloyat, mamlakatlarga ana shunday qisqa, lekin mazmunli ta’rif berish juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. H.Hasanov “Boburnoma” asaridagi joy nomlari to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Asarda XII asr boshidagi joy nomlari o‘sha vaqtdagi holatda va transkripsiyada berilgan. Bu nomlarning ko‘pi ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan shu kungacha mavjud. Ba’zilari hozir unitilgan. Yangi nom olgan yoki butunlay ishlatilmay qolgan”²¹. “Boburnoma” asarida qo‘llanilib, turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab, bizgacha ketib kelgan Etnonimlar ham mavjud. Masalan: Marg‘ilon (Marg‘inon), Jizzak (Dizak), O‘zgan (O‘zgand), Quva (Quba), Konibodom (Kandibodom), Qo‘qon (Xo‘qon), Termiz (Tirmiz), Rishton (Rushton) kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari asarda juda ko‘plab etnonimlar ham tilga olib o‘tilgan. O‘zbek, qipchoq, qalmoq, barlos, ming, chakrak, joloyir, mag‘it, qarluq, mo‘g‘ul kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shu o‘rinda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari haqida ham to‘xtab o‘tish zarur bo‘ladi.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ati turk” asari bebaho qomuski, undan har bir mutaxassis o‘ziga zarur material topa oladi. “Devon”ni ayni vaqtda qimmatli etnologik asar ham deyish mumkin. Chunki bundan uch yuz - to‘rt yuz yil oldin yozib olingan nomlar ham qadimgi etnonimiyaning dastlabki shakliga hozirgi talaffuzdan ko‘ra ancha yaqin bo‘ladi. “Devonu lug‘ati turk” esa bundan o‘n asr oldin yozib qoldirilgan. Shuni aytish kerakkki, nomlar qanchalik ilgari yozib olingan bo‘lsa, shunchalik qimmatli bo‘ladi. Chunki ana shu davrda nomlarning fonetik hamda grammatik xususiyatlarida qanday o‘zgarishlar ro‘y berganini aniqlash mumkin bo‘ladi²².

Tarix darslarida ham etnologik materiallardan to‘la foydalanish mumkin. Umuman, etnologik materiallar fanlararo munosabat masalasida ham o‘qituvchi uchun juda qo‘l keladi. Bu borada nomlarning tarix fani bo‘yicha o‘tkaziladigan

²¹ Hasanov X. Захириддин Мухаммад Бобур. (хаёти ва биографик мероси), Тошкент, 1966, 47-бет.

²² Қораев С. Географик номлар маъноси. Тошкент, 1978, 17-б.

darslarda alohida o'rni bor. Chunki ko'pgina nomlar xalq tarixi, urf - odati turli xil aloqalari ta'sirida vujudga keladi.

Boshqa darslarda qayd etilgan va o'rganilgan antroponim, etnonim, gidronim va etnonimlar kabi atoqli otlarni 5-9-sinflarda tarix darslarida foydalanish muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Darslarda etnologik materiallardan foydalanish uslubi yoshlarni milliy istiqlool mafkurasining ajralmas qismi vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishning negizi bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, 7-sinfda O'zbekiston tarixi darsida «Amir Temur davlatining tashkil topishi» mavzusini o'tish jarayonida o'qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda suhbatni Samarqand so'zining etimologiyasidan boshlaydi.

Samarqand – Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shahar. Bu shaharning Marokanda, Samariana, Samanka, Sakanna, Sanmagen, Samakiyan, Sumron, Shamirkent, Samaran, Simroyat kabi variantlar bor. Bu shaharning etimologiyasi to'g'risida turli xil fikrlar bor. Lekin Samarqand «Semizkent» ya'ni semiz shahar, kattta shahar degan ma'noni bildiradi, degan fikrni Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Bobur asarlaridagina emas, balki tarixchi Mirxondning «Ravzat-us safo» asarida, XV asr Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning kundalik daftarida ham qayd qilingan²³.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Samarqand eng qadimiy shahardir, uning bunyodga kelgan vaqti va «Samarqand» degan so'zning kelib chiqishi hamda turli fikrlar mavjud. Sharq olimlari «Samarqand» so'zining birinchi qismi, ya'ni «Samar» so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining ismi deb hisoblab, bir qator sun'iy ta'riflarni taklif etdilar, biroq ba'zi olimlar tarixda bunday kishi bo'lgan emas deb hisoblaydilar. So'zning ikkinchi qismi «kent» shahar nomi ma'nosini beradi. Bu so'zning kant, kan, gan, gon, kand shakllari ham bo'lib, bu so'zlar ham shahar degan ma'noni anglatadi. Ba'zi Yevropa olimlari bu nom yig'ilish so'zidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar.

²³ А. Набиев., Асроров Х. Ўзбекистон тарихи курслари ўқитишда топонимик материалдан фойдаланиш. Тошкент, 1996, 90 б.

Antik davr olimlari asarlarida shahar «Marokand» deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin boʻlib Maroqanda Samarqand soʻzining yunoncha aytilishidir. XI asr olimlaridan Abu Rayhon Beruniy va Maxmud Qoshgʻariy Samarqand nomining bu shakli «Semizkent», yaʼni semiz shahar soʻzining buzib talaffuz qilinishidan deb tushuntiradilar.

Bundan tashqari mavzuni mustahkamlashda Samarqanddagi juda ajoyib va turli tuman nomlar toʻgʻrisida ham maʼlumot berish mumkin. Jumladan, Kattaqoʻrgʻon, Nurota, Narpay, Chelak, Zanjirbogʻ va boshqalar Samarqand tarkibiga kiradi. Dars soʻngida oʻquvchilarga «Amir Temur davlatining tashkil topishi» mavzusiga doir etnonim va etnoetnonimlarni topib kelish va nomlarning kelib chiqishini oʻrganib kelish topshiriladi.

9 – sinfda Oʻzbekiston tarixi «Birinchijahon urushi yillarida Oʻzbekiston» mavzusini oʻtish jarayonida ham etnologik materiallardan foydalanish mumkin.

Oʻqituvchi «Birinchijahon urushi yillarida Oʻzbekiston» mavzusini bayon qilish jarayonida ijtimoiy va milliy zulmga, mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik uchun kurash olib borgan shahar va vohalar nomlarining kelib chiqish tarixi haqida qisqacha toʻxtab oʻtadi. Asosiy eʼtiborni har bir joyning nomi va uning maʼnosini, oʻz tarixi borligiga, birinchi eshitganda maʼnosizday tuyulgan nomlar chuqurroq qaralsa koʻpincha kutilmagan mazmun berishiga qaratadi. Shuni aytish kerakki, mazkur joyga nom berilgan oʻsimlik yoki hayvon yoʻq boʻlib ketgan, bu joyda yashaydigan xalqlar esa boshqa bir yerga koʻchib ketgan boʻlishi ham mumkin, biroq joy nomi deyarli oʻz holicha qolaveradi. Boshqacha qilib aytganda, geografik nomlarning maʼnosiga qarab bu yerlarda qadimda qanday hayvonlar yashagani yoki qanday oʻsimliklar oʻsganini ham aytib berish mumkin. Misol: Bir vaqtlar Oʻrta Osiyoda qulon deb atalgan yovvoyi otlar uyur-uyur boʻlib yurishgan. Qulonni ovlay berib, qirib yuborishgan. Hozirgi vaqtda qulon Turkmanistondagi Bodxiz qoʻriqxonasida qolgan xolos²⁴. Lekin Qulonsoy,

²⁴ Қораев С. Қўрсатилган асар, 157б.

Qulonboshi, Qulontepa kabi toponimlar (Ushbu hayvon nomiga asoslangan urug' nomi (etnonim) asosida vujudga kelgan.

Masalan "IX-XII asrlarda Xorazm" mavzusini o'tishda uyga vazifa variantlaridan foydalanish mumkin. Unda uyga vazifa: "XII-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlati» mavzusini o'qib kelish hamda Shovot, Bog'ot, Yangibozor va Qo'shko'pir so'zlarining ma'nosini o'rganib kelish topshiriladi.

O'qituvchi Xorazmning viloyat, shahar, qishloq va tumanlari nomlarining kelib chiqishiga oid bir qator etnonimlarni izohlaydi. Bu viloyat tarixi va uning etnologiyasi haqida fikr yuritilganda, o'quvchilarga, avvalo «Xorazm» so'zining etimologiyasi haqida batafsil ma'lumot berish zarur.

Xorazm - O'zbekistonning viloyati. Qadimda Xorazm nomi ostida Amudaryoning oqimi tushunilgan. Bu voha O'rta Osiyodagi eng ko'hna o'lkalardan biridir. Xorazm haqidagi dastlabki ma'lumotlarni "Avesto"da uchratamiz. Bu nom yunonlarda Xorazmiya yoki Uvayezmiya, "Avesto"da Gairizao shaklida uchraydi.

Arab mualliflari – Xuvorezm, Xitoy manbalari - Xoli-si-mi-kiya deb tilga oladi. So'zning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Ulardan ba'zilarida Xorazm "pasttekislik" (Klippert), "yomon yer" (Shpigel), Hur-zamin, "Quyoshli yer" (Grekov), "Hosildor yer, boquvchi yer" (Ye.Byurnuf) shaklida izohlanadi.

Umuman, hamma tadqiqotchilar nomning ikkinchi qismi zem, zm ni "yer, zamin" so'zi bilan bog'laydi. S.P.Tolstov Xorazm so'zini Xvari yoki Xurrit etnonimi bilan aloqador deb hisoblab, "Xvarri yeri" shaklida izohlaydi. V.A.Nikonov bu etnonim eroncha xvar "pastki, quyi" so'zi bilan aloqador bo'lishi ham mumkin deb hisoblab, "xvari yeri" shaklida izohlaydi.

Akademik Ya.G'.G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" nomli asarida S.P.Tolstovning yuqoridagi fikrini to'la ma'qullaydi. Xorazm Amudaryo bilan Qoraqum o'rtasidagi serhosil voha. Xorazm qadimiy o'lka, qo'hna madaniyatga ega. "Xor" degani qadimgi so'g'd tilida "quyosh", "azm" – o'lka, ya'ni Xorazm – quyoshli o'lka degan ma'noni anglatadi. Xorazmning paydo bo'lishi to'g'risida bundan boshqa rivoyatlar, afsonalar ham bor. Chindan ham

Xorazmni quyoshli o'lkada deyish mumkin, chunki Xorazmda yilning ko'p fasllarida quyosh o'z yog'dusini sohib turadi.

II.2. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda etnologik atamalardan foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari nizomida «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ta'limiy ish jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda hamda ijtimoiy foydali mehnat jarayonida amalga oshiriladi» deb ta'kidlanadi. Shundan ma'lum bo'ladiki darsdan tashqari ishlar umumiy ta'lim tizimining tarkibiy qismidir. Mamlakatimizda umumiy ta'lim talablariga ko'ra, maktab o'quvchilarining deyarli hammasi u yoki bu darsdan va maktabdan tashqarigi ishlariga jalb etilishi kerak va tadbirlardan o'quvchini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirishning muhim vositasi sifatida foydalaniladi.

Darsdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan guruhda olib boriladigan ta'lim mashg'ulotlaridan farq qiladi. Darsdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – darsdan tashqari ishlarga o'quvchilar o'z ixtiyorlari, xohish istaklari bilan jalb qilinadilar. O'quvchilar o'z qiziqishlariga va layoqatlariga qarab turli to'garaklarga o'z ixtiyorlari bilan yoziladilar, mashg'ulotlarga ham o'z istaklari bilan qatnashadilar.

Darsdan tashqari ishning turlari va shakllari xilma-xil bo'lib, har bir maktabda bu tadbirlarga hamma o'quvchilarni tortish talab etiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni va tashkiliy asosan o'quvchilarning qiziqishlari va talablariga, shuningdek, ko'p jihatdan mahalliy sharoitga, maktabning o'z sharoitiga bog'liq bo'ladi. Maktabda turli fanlarga doir to'garaklarning dasturlari umumiy tuziladi. To'garak rahbarlari o'zlarining ish rejalarini tuzganda ana shu dasturga hamda yo'riqnoma-metodik ko'rsatmalarga asoslanadilar va o'z sharoitlarini hisobga oladilar.

Darsdan tashqari ishning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday tadbirlarda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari, mashg'ulotlari asosiy o'rin tutadi. Mustaqil ishlarni bajarishda asosan o'quvchilarning o'zlari

tashabbuskorligi va mustaqilligiga suyangan holda umumiy rahbarlik qiladilar. O'quvchilarning yoshi nechog'lik katta, guruh turi yuqori bo'lsa, ularning tashabbuskorligi va mustaqilligidan shu qadar to'liq va har tomonlama foydalaniladi.

Mashg'ulotlar ham mazmun, ham tashkiliy shakllari jihatdan o'quvchilar uddalay oladigan bo'lishi o'quvchilar jamoalari hamda ota-onalar yordamiga suyangan holda olib borilishi lozim.

Darsdan tashqari olib boriladigan ishlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri – mashg'ulot o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishlar tug'dirishi, ularni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash vazifalarini hal qilishdan iborat. Shu bilan birga bolalarning hayotini chinakamiga jo'shqin, madaniy qilish, ularni jamoa bo'lib ishlash, o'qish va yashashga o'rgatishdir.

Ma'lumki, darsdan tashqari mashg'ulotlarning turi va usullari rang-barangdir. Ulardan foydalanish esa ko'pincha o'qituvchining mahorati va bilimiga bog'liqdir. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda etnologik material juda muhim va samarali bo'ladi. Bunday mashg'ulotlardan mahalliy manbalardan foydalanish qulay va foydalidir. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'lkani o'rganish, tarix, jamiyatshunoslik, jo'g'rofiya, ona tili va adabiyot fanlari dasturlari asosida tashkil qilinishi mumkin. Ularning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'z o'lkasi, tug'ilib o'sgan el-yurtining tarixi, tevarak atrofi, tabiiy iqtisodiy sharoitlari, tabiiy boyliklari, aholining turmush tarzi, el farzandlari, dongdor kishilari bilan tanishish va shu yo'l bilan ularni milliy qadriyatlar, madaniy meros bilan tanishtirish, ularga vatan tuyg'usini singdirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun mashg'ulotlarning turli shakllaridan ilmiy to'garaklar, ta'limiy o'yinlar nomlarni to'plash kabilardan foydalanish mumkin.

Biz mazkur ishimizda darsdan tashqari ishlarda etnologik materiallardan foydalanish, etnologik to'garaklar, etnologik viktorinalar, etnologik nomlarni to'plash usullari va nomlar kartotekasini tashkil qilish, nomlarning «Qizil kitobi»ni tashkil qilish kabi masalalar haqida to'xtalamiz.

Etnologik to'garaklar. O'quvchilar uchun fan to'garaklarini tashkil qilish darsdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining eng ko'p rejali va muntazam qo'llanadigan ish shakllaridan biridir. To'garaklar o'quvchilarning qiziqishlari va havaslariga qarab, darslardan bo'sh vaqtlarda tashkil etiladi. To'garaklar o'quvchilarning umumiy maqsad va intilishlari bilan birlashgan o'quvchilar guruhlaridan iborat bo'ladi. To'garak, odatda, bir guruh yoki parallel guruhlarining, shuningdek, aralash guruhlarining o'ntadan yigirmatagacha bo'lgan o'quvchilari tarkibidan iborat bo'ladi. To'garak tarkibi haddan tashqari katta bo'lmasligi kerak, chunki to'garak a'zolari juda ko'p bo'lsa, o'quvchilarning faolligiga putur yetadi.

To'garakning butun o'quv yili uchun tuzilgan dasturi asosida o'quv choragi yoki o'quv yarim yilligiga mo'ljallangan ishlar bo'yicha aniq kalendar reja tuziladi.

To'garakning ish rejasida uning maqsad va vazifalari, o'rganiladigan muammo, uning tarkibiga kirgan mavzular, ularni o'rganish muddatlari, bajarilishi uchun mas'ul a'zolar aniq ko'rsatiladi.

To'garaklarning mashg'ulotlari o'qishdan tashqari vaqtlarda har oyda bir martadan to'rt martagacha o'tkazilishi mumkin. To'garakda bajarilgan barcha ishlar rejada ko'rsatilgan tartibda to'garak rahbari yoki sardori tomonidan to'garak jurnalida qayd qilib, yozib boriladi. To'garak ishlari navbat bilan maktab o'qituvchilarining kengashida vaqti-vaqti bilan to'garak rahbarining hisoboti tarzida tinglanib, uning faoliyatiga baho berib boriladi.

Geografik nomlar etimologiya va so'z yasalishi haqida boy ma'lumotlarni o'zlarida mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham, o'quvchilarni etimologik analizga o'rgatishda etnologiya to'garaklarining roli katta.

To'garak mashg'ulotlarida geografik kartalardagi nomlar, tarixiy voqealar bilan bog'liq nomlar yoki mahalliy geografik nomlarning etimologiyasi bilan tanishtira borish o'quvchilarga:

- geografik nom yoki terminning esda qolishiga yordam beradi;
- so'z yasalishi haqida ma'lumot oladi;

- etimologik tahlil ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada o'quvchi har bir so'z va iboraga o'ylanib qaraydi, uning mazmunini bilishga qiziqadi.

To'garak mashg'ulotlari kirish darslari bilani boshlanib, o'quvchilarga geografik nomlarni o'rganadigan fan haqida dastlabki tushunchalar berish, nomlarning xususiyatlari, ularning har xil o'zgarishlarga uchrashi, ular haqida har xil rivoyatlar, afsonalar saqlanganligi kabi masalalar aytiladi.

Umuman etnologiya to'garagi mashg'ulotlari kichik-kichik ma'ruza sifatida o'tishi ham mumkin. Ma'ruzani o'qituvchi yoki maxsus tayyorlangan o'quvchilar qiladi.

Birinchi mashg'ulot. Jahonda juda ko'plab shahar va qishloq, daryo va dengiz, tog' va dashtlar mavjudki, ularning hammasi o'z nomlariga ega. Bularning ko'plari yaqin-yaqinlardagina paydo bo'lgan bo'lsa, ko'plari minglab yillar osha bizga yetib kelgan. Masalan: Navoiy shahri, Gazli va boshqalar.

Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lgan Navoiy shahri hamda tabiiy gaz moddasining topilganligi uchun Gazli deb nomlangan shaharning yaqinda vujudga kelganini bilamiz. Ammo, Xorazm, Qarshi, Qo'qon, Samarqand kabi ko'plab nomlarning asl ma'nosini darhol bila olmaymiz.

Bunday nomlar haqida har xil farazlar bildiriladi. Jumladan, Xorazm so'zining kelib chiqishini shunday talqin qiladilar: Podsho o'zining to'rt yuz askaridan g'azablanib ularni odamsiz cho'lga chiqarib tashlashni buyo'rgan. Podshoning farmoni bajarilgan. Oradan bir necha yil o'tgach, podsho ulardan xabar olishni topshirgan. Podsho odamlari ularning tirik ekanligi haqidagi xabarni keltiradi. Quvg'in qilinganlar Xor (go'sht) va Razm (o'tin) bilan hayot kechirgan emish. Shuning uchun podsho bu yerni Xor- razm deb nomlashni va ularga to'rt yuz cho'rini keltirib berishni tayinlaydi.

Bunday afsonalar lug'aviy ma'nosi noma'lum bo'lgan deyarli barcha nomlar uchun to'qilgan. Bunday rivoyatlar nomlarning asl mohiyati va mazmunini ochib bera olmaydi.

Ikkinchi mashg'ulot. Har bir joyning o'z tarixi bor. Ular xalq hayotining turli tomonlarini o'zida aks ettiradilar. Nomlar ko'pincha shu hududda yashagan ma'lum xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan holda sodir bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan Xorazm nomini tekshirgan S.P.Tolstov shu hududda yashagan xvarri qabilasining nomi bilan bog'liqligini, ya'ni xvarri – zem (yer) – “xvarri qabilasining yeri” ekanligini aytadi. Yoki O'zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydigan Do'rmon nomini olaylik. Bu Etnonim ham o'zbek xalqining bir urug'i nomi bilan bog'liq bo'lib, mo'g'ulcha “to'rt” demakdir. Qadimda shu urug' vakillarining ko'chib yurishi natijasida urug' nomi bilan ataladigan joylar vujudga kelgan.

Nomlarning aksariyat ko'pchiligi shu joyning geografik tuzilishi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Masalan, Shahrisabz – “ko'k shahar”, “yashil shahar”, ya'ni bog'i ko'ki shahar ma'nosini bersa, Sibir etnonimi S.Qorayevning tekshirishicha, “botqoqolik”, “zax joy” demakdir. Yozyovon nomi yoz - cho'l, yovon – dasht, cho'li biyobon degani. Nomlarning asl mohiyatini ochish juda qiyin masla. Chunki bu tadqiqotchidan til ilmini bilish bilan birga tarix, geografiya, arxeologiya, etnografiya kabi bir qator fanlarni bilishni talab qiladi.

Uchinchi mashg'ulot. Xo'sh biz nima uchun ko'pchilik nomlarning ilk mazmunini bilmaymiz?

Bu juda ko'plab faktorlar bilan bog'liq:

1. Geografik nomga asos bo'lgan so'z eskirib, shu tilda umuman iste'moldan chiqib qoladi, natijada etnonimning ma'nosi ham unutiladi. Beshyog'och nomidagi yog'och qadimgi uzunlik, masofa o'lchovi bo'lib, bir kmga teng. Demak, beshyog'och ya'ni, markaz (o'rda)dan besh yog'och uzoqlikda. So'g'onchi Etnonimi piyozchi demakdir. Chunki, so'g'on qadimgi turkiy tillarda piyoz degan ma'noni bildirgan. Demak, piyozchilar qishlog'i. Yoki Tovshonqir nomini ko'ring: tovshon - tovishqon qadimda quyon degani bo'lib, tovshonqir “Quyonli qir” demakdir.

2. Ob'ektning mazkur nomini olishga sabab bo'lgan belgilari o'zgarib ketadi yoki butunlay yo'qoladi. Bu esa nomning asl ma'nosini unutilishiga sabab

bo'ladi. Yettiterak, To'qqiz qayrog'och kabi nomlar shu joyda qayrag'och yoki terakning mavjudligiga ishora qiladi. Etnonimikada to'qqiz, yetti, qirq, yuz kabi sonlar ayni shu raqamning qiymatini ifodalamaydi, balki ifodalangan predmetning ko'pligi yoki kamligini bildiradi. Shuning uchun yuqoridagi nomlarni "terakli qishloq", "qayrag'ochzor, qayrag'ochi bor joy" deb tushunmoq kerak. Ammo vaqt o'tishi bilan na terak, na qayrag'och qolmasligi mumkin. Qiyos qiling: Kirivoy rog shahrining nomi chetdan qaraganda "qiyshiq shox" deb o'qiladi. Lekin V.A.Nikonovning tekshirishicha, Kirivoy ovrag, ya'ni "qiyshiq jar"dir. Shahar jar yonida yoki xandaqlar yaqinida qurilgan. Ammo hozir bu jarlar yo'q. Natijada shahar nomining ma'nosi unutilgan.

To'rtinchi mashg'ulot. Bu mashg'ulot o'quvchilarda etnologiya haqida, so'z yasalishi, etimologiya haqida dastlabki tushuncha va ko'nikmalar hosil qilgach o'tkaziladi.

Mashg'ulot geografiya va o'lkani o'rganish to'garagi qatnashchilari bilan birga o'tkazilsa ham bo'ladi. Dars mahalliy etnologik nomlarni yig'ishga qaratilgan. O'quvchilarga etnologik nomlarni yig'ish bo'yicha so'rovnoa yozdiriladi. Keyingi mashg'ulotlarda har bir qatnashchiga topshiriqlar berish hamda ularni tinglash va muhokama qilish mumkin. Bunda asosan "Shahrimizdagi ko'cha nomlari", "Qishloq nomlarini o'rganamiz". "Ariq va kanal nomlari" kabi mavzular asos qilib olinadi.

Mashg'ulot geografiya va o'lkani o'rganish to'garagi qatnashchilari bilan birga o'tkazilsa ham bo'ladi. Dars mahalliy etnologik nomlarni yig'ishga qaratilgan. O'quvchilarga etnologik nomlarni yig'ish bo'yicha so'roqlik yozdiriladi. Keyingi mashg'ulotlarda har bir qatnashchiga topshiriqlar berish hamda ularni tinglash va muhokama qilish mumkin. Bunda asosan "Shahrimizdagi ko'cha nomlari", "Qishloq nomlarini o'rganamiz". "Ariq va kanal nomlari" kabi mavzular asos qilib olinadi. O'quvchilarning ba'zi muvaffaqiyatli ishlari devoriy gazetalarda yoritib borilsa, ancha yaxshi samaralar beradi.

Etnologik o‘yinlar. O‘quvchilar o‘rtasida etnologik ommaviy tadbirlarning (devoriy gazeta, konkurs, viktorina, kecha va boshqalarning) to‘g‘ri va o‘rinli tashkil qilinishi o‘quvchilarning nomshunoslikka qiziqishini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqillik va ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini o‘stirishga katta imkon yaratadi.

O‘tkir zehnlilar bellashuvi – etnologiya to‘garagi ishlarida o‘quvchilar faolligini oshirishda muhim tadbirlardan biri o‘tkir zehnlilar bellashuvini tashkil qilishdir.

Ma’lum guruhlarda yoki parallel guruhlarda ma’lum mavzular bo‘yicha materiallari o‘rganilgach, to‘garak a’zolari va ommaviy guruhlar o‘quvchilarining bilim darajalarini sinash maqsadida to‘garak gurhlari yoki parallel guruh o‘quvchilari o‘rtasida uyushtiriladi.

Bellashuv uyushtirilishidan oldin barcha o‘quvchilar bellashuvning dasturi, mazmuni, hajmi, umumiy savollar va ularni bajarish tartiblari bilan tanishtiriladi. Bellashuvning jyuri hay’atini maktab ma’muriyati maktab direktorining ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha muovini, ona tili va adabiyot fanlari metod birlashma rahbari, oliy toifadagi o‘qituvchilar tashkil qiladi. Jyuri xay’atining odilona, xolisona ishlashi har jihatdan ham muhimdir.

Bellashuvda qatnashayotgan jamoa (guruh)larga munosib nomlar qo‘yiladi, an’anaviy tanishi, tabriklash bo‘lib o‘tadi va nihoyat, qat’iy reja va tartibda bellashuv tashkil qilinadi. Bahslashuvning tartibli va chiroyli chiqishi uchun unga jiddiy tayyorgarlik ko‘riladi – yozish uchun xat taxtalar, bo‘r, lattalar, shuningdek zarur bo‘ladigan boshqa narsa-predmet, jihozlar foydalanishga qulay bir tarzda tayyorlab qo‘yiladi. Bahsga qatnashuvchilarning og‘zaki va yozma nutqlariga, o‘zlarini tuta olishlariga, erkin muomalaga kirisha olishlariga, muomala odobiga rioya qilishiga katta e’tibor beriladi. Bellashuv jyuri hay’atining baholarini e’lon qilish, g‘oliblarni aniqlash. Rag‘batlantiruvchi mukofotlarni taqdim qilib, o‘quvchilarning kelgusi o‘qishlarida muvaffaqiyatlar tilab, bellashuv nihoyasiga yetadi.

Etnologik viktorinalar. Etnologik viktorinalar ma'lum mavzu, bo'lim yoki umuman etnologiyaga tegishli masalalar bo'yicha savol-javob o'yini bo'lib, unda savollar og'zaki yoki yozma ravishda berilib, javoblar ham og'zaki yoki yozma tarzda olinadi. Etnologik viktorinalarni gazeta hamda maxsus varaqa orqali rahbar yoki juri o'tkazadi.

Viktorinaning mazmuniga qarab, u darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi. Unda o'tiladigan materiallarni takrorlash, o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha olgan bilimini mustahkamlash maqsad qilib qo'yiladi. Binobarin, viktorina o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, ularning umumiy bilimlarini kengaytirib va fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yana ham oshirishda hamda o'quvchilarning adabiyotlar ustida mustaqil ishlash va ulardan kerakli masalani ajrata olishga o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

Etnonimik viktorinalar o'tkazish usullaridan ba'zilarini keltiramiz:

1. Savollar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladi. Javob berishni istagan o'quvchilar qo'l ko'taradilar. O'qituvchi yoki rahbar o'quvchilardan bir nechtasi qo'l ko'targuncha kutib turib, keyin birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchidan so'raydi. Agar o'quvchining javobi noto'g'ri bo'lsa ikkinchi, uchinchi va hokazo qo'l ko'targan o'quvchilardan (to'g'ri javob olguncha) so'raladi. Bu usul bilan viktorina o'tkazganda o'quvchilar faol ishtirok qilib mashg'ulot jonli, qiziqarli o'tadi. Ammo bir necha o'quvchi barobar qo'l ko'targan vaqtda birinchilikni aniqlash bir oz qiyin bo'ladi.

2. Agar berilgan savolga javobni yozib ko'rsatish imkoni bo'lsa, o'qituvchi (yoki rahbar) o'quvchilarga javoblarini daftarlarga yozib, keyin qo'l ko'tarish kerakligini aytadi. O'qituvchi (yoki rahbar) qo'l ko'targan o'quvchilar oldiga borib, berilgan savol javobini ko'radi. So'ng avval qo'l ko'targan o'quvchiga javobni aytishga ruxsat beradi. Bunda javob bergan o'quvchi bergan javobini tushuntirib beradi.

3. O'qituvchi (rahbar) doskaga viktorina uchun tayyorlab kelingan bir necha savollarni yozib, ularni yechish vaqti ochkosini belgilaydi. O'quvchilar o'z ismi va sharifii yozilgan qog'ozga berilgan savollarni javoblarini yozib beradi. Keyin

o'qituvchi (yoki rahbar) o'quvchilarning ishlarini uyiga olib ketib, (yoki tanaffus vaqtida) tekshirib, tegishli o'rinlarni belgilaydi va natijasini e'lon qiladi. Bunday usul bilan o'tkazilgan viktorinalar uchun, faqat javobi yodda aytiladigan savollarni tanlamasdan, javobi biroz manbalarni varaqlash bilan topiladigan savollarni ham olish kerak.

4. O'qituvchi (rahbar) uyida savollarida viktorinaga qadar kartochkalarga yozib keladi, bu kartochkalarda har qaysi savolning ochkosi ko'rsatiladi. Bu kartochkalar o'quvchilarga tarqatilib, javobini topish vaqti belgilanadi. Bundan oldin o'quvchi bir varaqdan qog'oz olib, unga familiyasini yozgan holda tayyor bo'lib o'tiradi. O'quvchilar kartochkalar olishlari bilanoq varaqqa kartochka nomerini qo'yib, undagi savollarning nomeri va uning to'g'risida javoblarni yozadilar. Ajratilgan vaqt tugashi bilan o'qituvchi (rahbar) kartochka va undagi savollarning javoblari yozilgan varaqlarni yig'ib, uyda tekshirib, birinchi, ikkinchi va hakoza o'rinlarni aniqlaydi.

5. Viktorina uchun maktab zalida maxsus doska ajratilib, unga har kuni ikki-beshtadan savollar yozilib, ularga javob berish vaqti ko'rsatiladi. Javoblar yozma ravishda doska yoniga osib qo'yilgan qutichaga tashlanadi. O'qituvchi (rahbar yoki maxsus tayinlangan juri) javoblarni olib tekshiradi, tegishli o'rinlarni aniqlaydi va mukofotga taqdim qiladi. Bunday viktorinalarni bir necha kungacha davom ettirishi mumkin.

Devoriy gazeta orqali ham viktorinalar o'tkazish mumkin. Bunda gazetaga viktorinaga oid savollar beriladi. Viktorina shartlari ko'rsatiladi va gazeta yaqiniga javoblar tashlash uchun maxsus quticha qo'yiladi.

Quyidagi etnologik viktorinalar o'tkazishda foydalangan savollardan ba'zilarini mavzular bo'yicha keltiramiz.

Viktorinalar o'tkazish uchun savollar.

1. Etnos nomi nima? Yana qanday nomlar bilan ataladi? Nima uchun shunday bo'lgan? Uning ma'nosi nimani ifodalaydi?

2. Etnik guruh nima? U yana qanday nomlar bilan nomlangan? Ular qanday ma'nolarni ifodalaydi?

3. Etnografik guruh nima? U qanday ma'noni anglatadi?
4. Etnogenez nima? Ular anglatib kelayotgan ma'nolarni bilasizmi?
5. Avtohton nima? Ular yangi nomlarini bilasizmi?
6. Genezis nima? Ular nimani anglatadi?
7. Antropologik tip - nima? Nega shunday atalgan?
8. Genealogiya nima? Uning nomi nima? Uning yana qanday ma'nolari bor?
9. Initsiatsiya ning nomi bormi? Ularning qanday turlarini bilasiz?
10. Integratsiyaning yana qanday nomlarini bilasizmi? Ular hozirgi kunda ham mavjudmi?

Beriladigan savollar ko'proq tanish mavzulardan, ona tili va adabiyot, tarix, geografiya, o'lkashunoslik sohalari bo'yicha tanlanishi mumkin.

Darsda mahalliy Etnonimlardan foydalangan holda krosvord, chaynvordlar to'zib, o'quvchilarga topshirish mumkin.

1. Etnologiyaga oid «A» harfi bilan boshlanadigan atamalarni bilasizmi?

1								
2								
3A								
4								

1. (yunon.)-mahalliy, jaydari, tub aholi mahalliy yer egasi bo'lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi, aborigenlar. (Avtohton)
2. (lot.-jon, ruh) - dunyoda jon va ruhlar mavjudligiga ishonish. Ibtidoiy davrda paydo bo'lgan. (Animizm)
3. (yunon.) - inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyatining shuningdek, jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni (Antropogenez)
4. (yunon.)-odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqlarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq, tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan. (Antropologiya)

2. «Kim ko‘p biladi?». Chaynvord.

Etnologik nomlarini tikkasiga shunday joylashtirngki, yonlamasiga «Etnik so‘zi» hosil bo‘lsin.

1.(yunon.) - elat, xalq. Etnologiyada urug‘, qabila, elat, xalq, millat etnos deb yuritiladi.(Etnos)
- 2.... (yunon.) - xalqlarning nomlarini anglatuvchi atama. (Etnonim)
- 3....qabila, xalq va boshqa etnik birliklarni o‘rganadigan fan (Etnonimika)-
- 4....Irq (ar. .) - ildchiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o‘xshash bo‘lgan tarixan tarkib toiz, tomir, odamlarning kelib pgan hududiy birligidir
- 5... (gel) - urug‘, qabavlod, ila, patronimiya. (Klan)

3.Xorazm viloyati. Krossvord. Agar krossvordni to‘g‘ri yechsangiz «Yangibozor» so‘zi kelib chiqadi.

1. Xorazmdagi tumanlardan birining nomi. (Xonqa)
2. yangibozor tumaniga yaqin joy nomi (Gurlan)
3. Tuman nomi (Yangiariq)
4. Xonqa tumaniga yaqin joy nomi (Bog‘ot)
5. Shohobod so‘zidan kelib chiqqan tuman nomi (Shovot)
6. Bog‘ot tumaniga yaqin joylashgan tuman nomi (Hazorasp)
7. Xorazm poytaxti (Urganch)

			3					
	1					6		
					5			8
		2		4			7	
Y								
a	N	G	I	B	O	Z	O	R

1. Shovot.
2. Xiva
3. Gurlan.
4. Xonqa
5. Yangiariq
6. Pitnak.

	1		V						
		2	I						
3			L						
	4		O						
			Y a						
	6		T						

		3		5	
	2		4		
1					
E	T	N	I	K	

[illegible]

- 63

5. Davlatimizdagi paxtachilik bo'yicha oldingi o'rinda turadigan shahar nomi (To'rtko'l).
6. Yirik shoyi fabrikalari bor shahar (Qo'qon).
7. Davlatimizdagi g'alla yetishtirish bo'yicha yetakchi bo'lgan shahar nomi (Denov).

	1								
2									
		3							
				4					
		5							
			6						
				7					
		8							

3. Etnologiyaga doir «I» harfi bilan boshladigan atamalarning nomini bilasizmi?

1											
2											
3	I										
4											
5											


1. Initsiatsiya.
2. Innovatsiya .
3. Integratsiya.
4. Irq.
5. Irqlar.

4. Etnologik atamalar nomini toping:


1. Etnogeografiya
2. Etnolingvistika.
3. Etnonim
4. Etnonimika
5. Etnotsentrizm
6. Etnos
7. Etnogenez
8. Etnikos

5. Quyidagi doiralar ichidagi tushib qolgan harflar o'rnini tez to'ldirsangiz viloyatimiz markazida joylashgan shaharchalarning nomi kelib chiqadi:


1.



2.



Chaynvord. Etnologiyaga doir uchta «A» harfi qatnashadigan joy nomlarini ayting (rasm).



Chaynvordni tez to'ldiring. Bo'sh xonalarga tegishli harflarni qo'ysangiz Etnologiyaga doir uchta shahar va bitta tuman markazining nomi kelib chiqadi.

1		T	T						
2		L	L						
3		K							
4		Z	Z						

Boshqotirma. Quyidagi doiralardan yashiringan etnologik atamalar bilan ataluvchilarni toping.

1.Etnografiya yunoncha bo'lib, «etnos» -xalq «grafiya» tavsiflash degan ma'nolarni anglatgan.


2. Sivilizatsiya - insoniyat jamiyati ilgarilama harakatida erishilgan darajani hamda moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish usulini ifodalaydigan tushuncha.

3.Etnikos (yunon.) - xalqchil, xalq tomonidan yaratilgan.

4.Irqlar - Homo Sapiens turi ichidagi sistematik guruhlar).

5.Magiya (yunon.) - sehrgarlik, odamning o'zini g'ayri tabiiy kuchlar ta'sirida ko'rsata olish qobiliyatiga asoslangan ish amallari.

6.Etnogeografiya (lot.) - etnologiyaning bir tarmog'i. Yer shari, alohida mamlakatlar va ularning hududlari aholisining tarkibi va joylashishini o'rganadi,



Quyidagi chaynvordni yeching. Respublikamizdagi ko'pgina shaharlar obod so'zi bilan tugaydi. Agar kataklarni to'g'ri to'ldirsangiz ularning nomi kelib chiqadi: 1- Surxondaryo viloyatidagi shahar (Sherobod); 2,6 – Toshkent viloyatidagi shaharlar (Bekobod, Yangiobod); 4, 5, 7 – Andijon viloyatidagi shaharlar (Xonobod, Xo'jaobod, Paxtaobod); 3 – Samarqand viloyatidagi shahar (Nurobod); 8 - Namangan viloyatidagi shahar (Xaqqulobod);

			1				O B O D
			2				
			3				
			4				
		5					O
		6					
	7						D
8							

Quyidagi chaynvordni yeching. Kent soʻzi bilan tugovchi Respublikamizdagi shaharlarni toping: 1, 2, 5 – Toshkent viloyatidagi shaharlar (Pskent, Parkent, Gʻazalkent); 4 – Buxoro viloyatidagi tarixiy shahar (Vopkent); 3 – Qashqadaryo viloyatidagi shahar (Bishkent).

		1			K e n t
	2				
	3				
	4				
5					

Etnologik atamalarning “Qizil kitobi”ni tashkil qilish. Etnonimlar uzoq davrning mahsuli sifatida maʼlum hududda sodir boʻladigan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasida turli xil oʻzgarishlarga uchraydi. Ayniqsa, hozirgi integrallashuv davrida koʻpgina tarixiy nomlar isteʼmoldan chiqishi yoki almashtirilishi mumkin. shuning uchun qadimgi noyob nomlarni asrash zaruriyati paydo boʻlmoqda. Maʼlumki, bunday nomlar barcha hududlarda mavjud. Ularni saqlash jamiyatning barcha aʼzolari burchi ekanligi va bu maʼnaviy-ahloqiy muammolardan biri ekanligini anglash maktabdan boshlanmogʻi lozim.

Darsdan tashqari mashgʻulotlarda oʻquvchilar tomonidan toʻplangan etnologik materiallar ichidan eng noyob, daxlsiz nomlarining “Qizil kitobi”ni tashkil qilishi mumkin.

Joy nomlarining “Qizil kitobi” ma’lum hudud (respublika, viloyat, tuman, shahar, vodi, mintaq)da uchraydigan Etnonimlar majmuini o’zida mujassamlashtiruvchi daxlsiz, rasmiy hujjatdir. Bunday kitobni to’zishdan maqsad xalqning uzoq o’tmishidan darak beruvchi hamda tarixiy madaniy, ahamiyatga molik bo’lgan nomlarni til, madaniyat va ma’naviyat yodgorligi sifatida asrash, ularni qonuniy va ilmiy yo’l bilan muhofaza qilishdan iboratdir.

E.Begmatov “Joy nomlari-ma’naviyat ko’zgusi” nomli kitobida joy nomlari “Qizil kitobi”ning mazmuni va tuzilishi. Qanday bo’lishi mumkinligi haqida o’zlarining fikrlarini bildiradilar.

Joy nomlari “Qizil kitobi”ning mazmuni va tuzilishi quyidagicha bo’lishi mumkin²⁵.

- Etnonimlarning “Qizil kitobi” Respublikaning ma’muriy hududiy bo’linishini ifoda qiluvchi o’rinlar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar) Etnonimiyasi bo’yicha (Masalan, “Xorazm viloyati etnonimlarining Qizil kitobi”) yoki ma’lum mintaqalari, hududlar etnonimiyasi bo’yicha (“Farg’ona vodiysi etnonimlarining Qizil kitobi”) kabi yoxud umumrespublika hududi etnonimlarining majmui bo’yicha (“O’zbekiston topoinmlarining Qizil kitobi”) tuzilishi mumkin.
- Nomlar kitobda qat’iy alifbo tartibiga solingan ro’yxat tarzida joylashtiradi.
- Har bir nom qisqacha tavsiflanadi (nom qanday o’rin, joy yoki ob’ektning nomi ekani, ob’ektning joylashish o’rni, nomning shakliy variantlari va boshqalar)
- Etnonimlar “Qizil kitobi”da ma’lum mavzuiy tasniflar asosida ham berilishi mumkin. Bunda nomlar muayyan mavzuiy guruhlarga ajratilgan holda joylashtiriladi. (Masalan, qishloq va ovul nomlari, mahalla va guzar nomlari, ko’chalar nomi, maydonlar nomi, ariqlar nomi kabi). Bunda ham nomlar har bir mavzu, guruh ichida alifbo tartibida joylashtiriladi va tegishli izohlar bilan ta’minlanadi.

²⁵ Бегматов Э. Жой номлари. маънавият кўзгуси. Тошкент, 1998.88-б

- Nomlar kitobda nom mansub bo'lgan hududda yashovchi aholining mahalliy tili (sheva va lahjada) qanday shakl va talaffuzda uchrasa, o'sha shaklda yoki an'ana tusiga kirgan umumadabiy shaklda yoziladi (Xo'kand emas, Qo'qon, Toshkan emas, Toshkent kabi).
- Etnonimlarning "Qizil kitobi" mutaxassis nomshunoslar yoki alohida tashabbuskor shaxslar, ilmiy markazlar, jamoalar, viloyatlar, tuman, shahar Etnonimiya komissiyalari tomonidan tuziladi. Nomlarning materialini to'plash o'rta va oliy maktab o'quvchilari, o'qituvchi va talabalarning boshqa xil jamoa tashkilotlari, uyushmalar, ko'ngilli jamiyat a'zolarini, o'lkashunoslarni ham jalb qilish mumkin.
- Nomlarning "Qizil kitobi" tegishli hududda yashovchi aholining muhokamasidan, maxsus ilmiy ekspertizadan o'tgach, tegishli hududning Etnonimiya komissiyasi tomonidan ma'qullanadi va xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) kengashida muhokama qilinib tasdiqlanadi.
- "Qizil kitob"dan o'rin olgan nomlar xalqning tarixiy- madaniy va lisoniy yodgorligi maqomiga ega bo'ladi va davlatning tegishli qonunlari tomonidan muhofaza qilinadi.
- Etnonimlarning "Qizil kitobi"ga o'zboshimcha o'zgartirishlar kiritish, unga kirgan nomlarni asossiz o'zgartirish va yo'qotishga harakat qilish ushbu daxlsiz hujjatning rasmiy huquqiy kuchini inkor qilish va mensimaslik qonun bilan tegishli ravishda jazolanishi kerak.

Joy nomlarining "Qizil kitobi" ga birinchi navbatda o'zbek xalqining tarixi va tilning madaniy, lisoniy yodgorlik maqomiga ega bo'lgan qadimiy tarixiy nomlar, shuningdek, turli sabablarga ko'ra noo'rin yo'qotilgan, ammo qayta tiklash lozim bo'lgan tarixiy nomlar hamda joylarning zamonaviy nomlari kiritiladi. Tarixiy va madaniy ahamiyatga molik nomlarga, birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- Joyning tabiiy-jo'g'rofiy holatini bildirgan xalqona nomlar: Toshloq, Chuqursoy, balandtepa, Oqtepa, Qorasuv, Sho'rbo'lok va boshqalar.
- Joyning o'ziga xos alohida belgisi, xususiyatini bildiruvchi nomlari: Yakkatut, Beshiktepa, Qizilqir, Qatortol.

- Xalq o'tmishini turli tarixiy bosqichlari va ularga xos xususiyatlar haqida ma'lumot va xabarlarini tashiydigan nomlar: Xonobod, Beklik, Amirtepa, Darxon, Boyqo'rg'on.
- Biron bir tarixiy yoki favqulodda voqea-hodisa haqida xabar beruvchi nomlar: Qizketgan, Amirqochgan.
- O'zbek xalqining urug' va qabilalari nomi bilan atalgan joy nomlari, shuningdek, aholining o'tmish davrlardagi ko'chishi (migratsiya) jarayonlarini ifoda qiluvchi nomlar: Do'rmon, Qarluqxona, Saroyqishloq, Jaloyir, Qipchoqovul.
- Xalqning an'anaviy hunarmandchiligi, o'tmish davrlar moddiy turmushi haqida xabar beradigan tarixiy nomlar: O'qchi, Temirchi, Taqachi, Bo'zchi, Piyozchilik, Ohakchi.
- O'zbek tilining uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'zida ifoda qiladigan, hozirda qo'yilish asoslari va ma'nosi unutilgan nomlar: Samarqand, Qo'qon, Andijon, Xiva, Piskent, Parkent kabi.
- Xalqning ardog'iga sazovor bo'lgan mashhur tarixiy shaxslar nomiga qo'yilgan etnonimlar: Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, Bobur mahallasi, A.Qodiriy ko'chasi, Beruniy maydoni va boshqalar.
- Kishilarning istaklari, orzu-umidlarini ifoda qiladigan ba'zi yangi nomlar: Xurriyat, Mehnatobod, Tinchlik, Mustaqillik maydoni, Istiqlol mahallasi.
- Shahar hududida joylashgan tabiiy-jo'g'rofiy ob'ektlar, inson mehnati bilan barpo qilingan turli makonlarning (ko'chalar, shox ko'chalar, boshi berk ko'chalar, chorrahalar, xiyobonlar, maydonlar, bog'lar, istirohat bog'lari, mahallalar, dahalar, guzarlar va boshqalar) nomlari.
- O'rin-joy tushunchasini ifoda qiladigan ba'zi tarixiy, madaniy, diniy ob'ektlar va makonlarning (qal'alar, qo'rg'onlar, devorlar, qarorgoh va o'rdalar, saroylar, karvonsaroylar, madrasalar, masjidlar, qabrlar, qabristonlar, shuningdek, milliy-madaniy ahamiyatga molik bo'lgan zamonaviy inshootlar, ansambllar turkumi va boshqalar) nomlari.

- Yerning tuzilishi (relef) xususiyatini (balandlik, pastlik, tekislik) ifoda qilingan tabiiy-jo'g'rofiy o'rinlar (tog'lar, qirlar, adirlar, yaylovlar, o'tloqlar, vodiylar, jarliklar, g'orlar, o'yiqlar, past-tekisliklar, sahrolar, cho'llar, dashtlar va boshqalar)ning atoqli otlari.
- Fanda gidronimlar deb yuritiladigan suvliklar bilan alqador bo'lgan tabiiy hamda sun'iy ob'ektlar (dengizlar, daryolar, irmoqlar, soylar, ariqlar, quduqlar, bo'loqlar, hovuzlar, ko'llar, havzalar, suv omborlari, to'g'onlar, tegirmonlar, sharsharalar, orollar, yarim orollar, kechuvlar, quruqliklar, botkoqliklar va boshqalar)ning tarixiy nomlari va boshqalar.
- Joy nomlarining "Qizil kitobi" viloyat, tuman, shahar etnonimiya komissiyalarida saqlanadi. Uning bir nusxasi Respublika etnonimiya komissiyasiga yuboriladi. Lozim topilganda, "Qizil kitob" ni ko'p nusxada nashr etish, unga kirgan nomlar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi mumkin.

Yoshlarni tarbiyalashda O'zbekiston Etnonimlarining qizil kitobi, shu jumladan, joy nomlari tahlilining roli hamda ahamiyati katta.

Etnologik atamalarni to'plash va o'rganish metodlari. Etnonimlarni to'plash etnologik tadqiqotning eng muhim bosqichlaridan biridir. O'zining rang-barang shevalariga ega bo'lgan o'zbek tili materiallari, ayniqsa Etnonimlarni to'plash ma'lum o'ziga xos xususiyatga ega.

Har xil rasmiy hujjatlarda qayd etilgan joy nomlari davr o'tishi bilan eskiradi. O'zida shu hududda yashovchi xalqning til xususiyatlarini aks ettira olmaydi. Shuningdek ko'pgina etnonimlar hech qayerda qayd qilinmagan ularni faqat mahalliy xalq tilidagina yozib olish mumkin. Bunday nomlar avloddan avlodga turli fonetik va grammatik o'zgarishlar bilan o'tadi. Bu tadqiqotchi ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi.

Ko'pgina mayda ob'ektlarning nomlari davr o'tishi bilan umuman unutiladi. Bu asosan shu ob'ektning yo'qolishi va uning o'rnini boshqa narsalar egallashi natijasida sodir bo'ladi. Shuning uchun etnonimlarni to'plash masalasi kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan biridir.

Nomlarni to'plovchilar ma'lum qo'llanma, so'roqliklarga ega bo'lmog'i kerak. Shuningdek, ba'zan nomlarni to'plashni ma'lum aniq maqsad qo'yilishi orqali ham amalga oshirish mumkin. Jumladan,

- Ayrim hudud etnonimlarining umumiy tahlili;
- Ayrim etnologik guruhlarni o'rganish. Masalan, ma'lum hududdagi gidronimlar, oronimlar, mikroetnonimlar va hokazo;
- Ma'lum hududdagi nomlarning leksik-semantik tahlili;
- Ba'zi topoyelementlarning tarqalishi arealini aniqlash va hokazo.

Etnonimlarni to'plash individual xarakterda ayrim kishilar tomonidan va jasoa usulda – ekspeditsiyalar va etnologika to'garaklari tashkil qilishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Ular ikki manbaga asoslanadi:

1. Nomlar ma'lum territoriyada yashovchi so'rash orqali yozib olinishi:

2. Yozma manbalardagi joy nomlarini to'plash.

Etnonimlarni ma'lum territoriyadan yig'ish puxta ishlangan dastur va so'roqlik orqali amalga oshiriladi. Bunda ma'lum axborotchi tanlanib, undan biror yo'nalishdagi ikki nuqta orasidagi geografik ob'ektlarni sanash iltimos qilinadi. So'ralayotgan yo'nalish albatta tabiiy daryo, ariq, ko'l kabi belgi bilan chegaralanmog'i va so'roqlar katta ob'ektdan boshlanishi kerak.

Nomlar shu vaqtning o'zida dialektologik transkripsiya orqali yozib olinadi. Etnonimlarni ko'pincha kontekstda yozib olish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa nomlarning qo'shimchalar qo'shilganda qanday o'zgarishlarga uchrashini belgilashda bu usul yaxshi samaralar berishi mumkin. ayniqsa savol va javobda nima?, qayerda?, qayoqqa?, qayerdan? kabi so'roqlarga javob olish nomning morfologik o'zgarishi xususiyatlarini ochib berishga yordamlashadi.

Nomlarni to'plash jarayonida nom haqidagi fikrlar, afsonalar va umuman xalq tushunchalari ham yozib olinadi. Bu ba'zi hollarda Etnonim etimologiyasini aniqlashga turtki bo'lsa, ayni vaqtda mazkur nom haqida «xalq etimologiya»larining qanday vujudga kelishini bilishga yordamlashadi.

Etnonimlarni to'plash bilan birga shu territoriyadagi antroponimlar kishi nomlarini, laqablarni-etnik nomlar va geografik terminlarni yig'ishga ham

ahamiyat berish kerak. Kishi nomlari, familiyalar va laqablar Etnonimlarning yasalihi ularning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, kishi nomlarida ham soʻz yasalihiining muhim xususiyatlarini va hududda yashovchi xalq tili xususiyatiga xos muhim belgilar mujassamlashgandir.

Shunday ekan, geografik terminlarni toʻplash birinchidan, Etnonimning etimologiyasini aniqlashga yordam beradi, ikkinchidan, geografik terminlar va Etnonimlarning oʻzaro munosabatini aniqlashga, appelyativ va nomning chegarasini belgilashga yordam beradi.

Umuman, Etnonimlarni toʻplash dasturi va soʻroqlik regional xarakterga ega boʻlmogʻi va oʻrganilmoqchi boʻlgan hududdagi sheva xususiyatlariga, hamda shu joyning tarixi va geografik tuzilishiga asoslanmogʻi lozim.

Bu keltirilgan soʻroqlik har bir hududda yashovchi xalqning til xususiyatlarini shuningdek oʻsha joyning geografik sharoitlarini nazarda tutgan holda oʻzgartirilishi ayrim punktlar qoʻshilishi yoki olib tashlanishi mumkin.

Etnologik atamalarni yozma manbalardan toʻplash ham muhim ahamiyatga egadir. Maʼlumki qadimgi yozma manbalar – tarixiy va geografik risolalar, sayohatnoma va har xil xarakterdagi kartalar juda koʻplab joy nomlarini oʻzida mujassamlashtirgan. Masalan: Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asarida juda koʻplab geografik terminlar bilan birga maʼlum qabila yashagan joy nomi ham keltiriladi. Shu kabi Zahiriddin Boburning “Boburnoma” sida na faqat joy nomlari, ularning koʻpchiligining izohi ham beriladi. Ayniqsa, qadimgi xonlar saroyidagi rasmiy hujjatlar joy nomlarini toʻplashda muhim manbadir.

Xiva davlat hujjatlarida shunday geografik atamalar qayd qilinganki, ularning koʻpchiligi hozirgi davrda umuman, yoʻqolib ketgan, bir qismi esa faqat kekxa avlod tilidagina saqlangan.

Rasmiy hujjatlarda bitilgan kishi nomlari koʻpincha shu kishining mansabi, laqabi yoki urugʻdan ekanligi yoki nomi bilan qayd qilinadi: Eshniyoz otaliq, Yaxshimurod chovdir, Yusuf qalmoq. Qalandar yuzboshi, Eshniyoz karnaychi,

Quvonch telpak va hakoza²⁶. Bu nomlarning ko'pchiligi joy nomi sifatida qo'llanilgan. Davr o'tishi bilan nom tarkibidagi mansub yoki shaxs ismi tushib qolgan, natijada Otaliq, Chovdir, Yuzboshi kabi etnonimlar vujudga kelgan.

Rasmiy hujjatlardagi joy nomlarini o'rganish hozirgi etnonimlarni qiyosiy o'rganish uchun ularning kelib chiqishini, tarixini aniqlashda joy nomlarinin vujudga kelish qonuniyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga egadirlar.

Joy nomlarini quyidagi yozma manbalardan to'plash mumkin:

1. Qadimgi tarixiy va geografik asarlardan;
2. Sayohatnomalardan;
3. Yer va suvga doir rasmiy hujjatlardan;
4. Vaqf ma'lumotnomalardan;
5. Qadimgi saroy yozishmalaridan;
6. Badiiy adabiyot namunalariidan;
7. XIX asrga oid O'rta Osiyoga taalluqli tarixiy va harbiylar tomonidan to'plangan, strategik ma'lumotlardan, kartalardan²⁷.
8. Keyingi davrdagi rayonlashtirish bo'yicha sharhlangan materiallardan.

Qadimgi manbalardan to'plangan etnonimlarni tekshirishda avvalo shu yodgorliklarning o'ziga xos xususiyatini nazarda tutish lozimdir. Ayniqsa, asarlarda ko'pincha kitobni ko'chirgan kotibning saviyasi ayrim hollarda uning sheva xususiyatlari ma'lum darajada aks etgan. Shuningdek ba'zi o'rinlarda kotiblar tomonidan sheva xususiyatlarini «adabiylashtirish» hollari uchraydi. Natijada asarda uchraydigan nom ham o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Qadimgi manbalardagi etnologik nomlarni o'rganishdagi ya'ni bir qiyinchilik ularning arab grafikasida bitilganligidir. Arab yozuvi turkiy tillarning butun fonetik xusuiyatini aks ettira olmaydi.

Fikrimizning dalili sifatida «Boburnoma»dagi Tarozi etnonimining keyingi ko'chirilgan nusxalarida O'troga aylanib ketganligini keltirishimiz mumkin.

²⁶ XIX asr Xiva davlat hujjatlari, t., II, M. I. Ma'lumki, XIX asrda O'rta Osiyoning Rossiya bilan q'ushilishi natijasida xarbiy va ilmiy maqsadlarda bu erdagi k'upgina oblastlar ruslar tomonidan o'rganildi. I. I. Ildoshev taxiri ostida Toshkent, 1960, 394-395 bet.

²⁷ Ma'lumki, XIX asrda O'rta Osiyoning Rossiya bilan q'ushilishi natijasida xarbiy va ilmiy maqsadlarda bu erdagi k'upgina oblastlar ruslar tomonidan o'rganildi.

H.Hasanovning ko'rsatishicha, Tarozi so'zining oxirgi tovushi (z) ni ko'chirgandan tovush ustidagi nuqtaning tushishi bilan z-r ga aylangan. Keyingi tadqiqotchilar bu nomni O'tror deb o'qiganlar²⁸.

Qadimgi yozma manbalardagi nomlarni tekshirganda ularni davrlarga bo'lib o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Har bir davr o'ziga xos joy nomlarini yaratadi. Masalan, XI asrda ko'pincha nomlar qabila nomi bilan yuritilgan. Mamlakatda bo'lib turadigan turli iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda qabilalarning yashash o'rnini ham o'zgarar va yangi qabilalar ko'chib kelar edi. Bu ayni vaqtda etnonimiyada o'z aksini topadi.

Shuningdek, bu davrdagi yozma yodgorliklarda ko'pincha turdosh otlarning atoqli otga aylanishi jarayoni aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, Arg'u qabilasi juda ilgari, hatto IX asrdayoq, ancha katta territoriyada yashovchi nufuzli qabila hisoblangan.

²⁸ X.Хасанов, Отрар или Тараз? Сб. Топонимики Востока Москва, 1969, стр. 161-162.

XULOSA

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, o'z Vataniga va tarixiga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida qo'shimcha manbalardan, xususan, Etnonimlardan foydalanish katta imkoniyatlarga ega.

Etnologik atamalar ayrim hududda yashovchi aholining tarixi, urf-odatlarini, ijtimoiy taraqqiyot usullari va dunyoqarashi, shuningdek, xalq tili va sheva xususiyatlarini uning qadimgi izldizlarini ma'lum mahalliy nomlarni ona tili va adabiyoti, tarix, geografiya darslarida samarali qo'llash mumkin.

Atamalarning ma'lum ob'ekt bilan bog'langanligi shu joyning geografik xususiyati haqida xulosa qilishga imkon beradi. Nomlarning ma'nosini bilish o'quvchining eslab qolishi va xarita bilan ishlashlari uchun muhim manba ekanligini belgilaydi.

Ona tili va adabiyoti darslarida nomlarning kelib chiqishi va ma'nosi haqidagi turli xil arenalarni keltirish va nomning asl mazmuni bo'yicha ilmiy-tahliliy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda semantik va etimologik tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi, so'z yasalishi haqida dastlabki ma'lumot oladi. Natijada o'quvchi har bir so'z va iboraga o'ylanib qaraydi, uning mazmunini bilishga qiziqadi.

Tarix (o'lkashunoslik) fani yangi avlodga o'z eli, yurtining barcha jihatlari – yer-suvi, hududlari, xalqlari, madaniyati, ijtimoiy hayotini o'rgatishga yo'naltirilgan. Tarixning barcha manbalarida ko'pdan-ko'p atoqli otlarga duch kelamiz. Bunda ham o'qituvchi nomlarni tarixiy-tadrijiy qiyoslab tushuntirsa, tarix (jamiyatshunoslik, o'lkashunoslik) va jo'g'rofiy fanlarini o'qitishda umuman, fanlararo aloqalari mustahkamlashga erishadi.

Ta'limning asosiy jarayonlaridan biri darsdan tashqari ishlar bo'lib, har qanday fanning natijalari hayotga, turmushga bog'lanmas ekan, uning samarasi bo'lmaydi. Shunday ekan, darsdan tashqari ishlarda etnologik ma'lumotlarni berish fan to'garaklari, suhbatlar, tanlovlar o'tkazish, etnologik ma'lumotlar to'plash

savollar majmuini tayyorlash, nomlarning “Qizil kitobi”ni tuzish va yurgizish bo‘yicha tavsiyalar, qo‘llanmalar tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Etnologik material darsdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ham muxim manbadir. Ayniqsa, etnologik to‘garaklar, etnologik o‘yinlar, ushbu soha bo‘yicha o‘quvchilar ilmiy anjumanlarini tashkil qilish yoshlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Darsda o‘tilgan mavzularni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim tadbirlardir.

Etnologik materialdan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchining tayyorgarligini talab qiladi. Onomastik bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchi bu ma’lumotlardan samarali foydalana oladi. Shuning uchun Oliy o‘quv yurtlarining filologiya, tarix va geografiya fakultetlarida “Etnologiya” fani bo‘yicha maxsus kurslar joriy qilish lozim.

Darsdan tashqari ishlar ta’lim jarayonining muhim va ajralmas qismidir. Shuning uchun mamlakatimizda ushbu soha bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari va tavsiyalar yaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

- 1.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
- 2.Каримов.И.А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз Т. “Ўзбекистон,1999.
- 3.Каримов И.А.Баркамол авлод орзуси. Т., 2000.
- 4.Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

Umumiy adabiyotlar

1. Абулғозий. Шажарайи турк.Т.Мерос.1992.
2. А.Асқаров. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.Тошкент.2003.
- 3.А.Асқаров .Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих.Т.: 2004
4. А.П.Садохин.Этнология. М.: 2000.
5. А.Аширов. Этнология.Тошкент.2007.
6. Ashirov A, Atajanov Sh.Etnologiya. Т.2012
7. Беруний.Т.А.Тошкент.1969.
8. Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1960
9. Бобурнома.Т.Мерос.1992.
- 10.Баёний.Шажарайи Хоразмшоҳий.Т.Мерос.1992.
- 11.Бондалатов А.Д. Русская ономастика. М., 1983.
- 12.В.А.Никонов. Диалектология и топонимика сб. Вопросы русской диалектологии. Куйбыше. 1965.
13. Дўсимов З, Тиллаева М. Топонимика асослари, Тошкент, 2001
- 14.Дониёров.Мустақил Ўзбекистон этнографияси тарихшунослигининг айрим масалалари.Т.: 2003.
15. И.Жабборов.Жаҳон халқлари этнологияси.Т.: 2005.
16. И.Жабборов. Жаҳон этнологияси асослари. Тошкент.2007.
17. Э.Мурзаев. Основные направления топонимических исследования, сб. «Принципы топонимики », М., 1964,

18. J.G'.Yo'ldoshev,S.A.Usmonov.Pedagogik texnologiya asoslari.Toshkent.2004.
19. К. Шониёзов.Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.Т.: 2000.
20. К.Шониёзов . Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.Тошкент.2001.
21. М.Қошғарий.Девонул-луғатит турк. Т.,1992.
22. М. Исмоилов, А.Шаропов. Тарих атамалари луғати Т., 2013.
23. М.Jumaniyozova .Etnos va etniklik. O'rganch.2011.
24. М.Jumaniyozova. Tarix darslarida o'qitishning muammoli texnologiyalaridan foydalanish.Toshkent.2009.
25. Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар.Т.: 2005.
26. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi.Toshkent.2012
- 27.О. Бўриев . Т. Хўжамбердиев.Этнологик атамаларнинг қисқача изоҳли луғати.Қарши, 2004.
28. Рашид-ад-дин. Жомъе-ут-таворих.Баку.1962.
29. R.H.Winthrop. Dictionary of Concepts in Cultural Anthropology. N.Y., Westport, Connecticut, L., 1991.
30. С.В. Лурье.Тарихий этнология .М.:1998,
31. Та'лим samaradorligini oshirish yo'llari mavzusidagi seminar-trening materiallari.Toshkent,2002.
32. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar ,echimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Toshkent. PFTI.1999.
33. Ҳасанов Ҳ. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. (ҳаёти ва биографик мероси), Тошкент, 1966.
- 34.Ўзбек педагогикаси анталогияси. 1 жилд. Т.1995.
35. О'zbekiston etnologiyasining nazariy-metodologik asoslari.Toshkent.2014.
- 36.Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва назарий-методологик ёндашувлар.Т.: 2004.